

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

5A111601- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(Ma'naviyat asoslari)

Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li

**MAMLAKATIMIZDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY
BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY
ASOSLARI**

Mavzusida

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: y.f.n.dots. N.K.Jamalov
“ ” 2020 yil
imzo

Kafedrası mudiri: y.f.n.dots.N.K.Jamalov
“Himoyaga tavsiya etildi”
“ ” 2020 yil
imzo

Magistatura bo'limi boshlig'i: R.Sh.Berdiqulov

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

DN-90



Toshkent- 2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

Udk

Qodiraliyev Abror Tojimurot o‘g‘li

**MAMLAKATIMIZDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY
BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHNING TASHKILIIY-HUQUQIY
ASOSLARI**

5A111601- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi

(Ma‘naviyat asoslari)

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Magistatura bo‘limi boshlig‘i
_____ R.Sh.Berdiqulov

“ _____ ” _____ 2020 yil

“Himoyaga tavsiya etaman”

“Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari”
kafedrasi mudiri _____

y.f.n.dots.N.K.Jamalov

“ _____ ” _____ 2020 yil

Ilmiy rahbar: _____

y.f.n.dots.N.K.Jamalov

Toshkent- 2020

MUNDARIJA

1.	KIRISH	
2.	I–BOB. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash masalasini tahlil qilishning metodologik asoslari	
3.	1. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash: mohiyati va tarixiy ildizlari	
4.	2. Ajdodlarimiz merosida millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik talqini	
5.	3. Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash borasida amalga oshirilgan islohotlar	
6.	1-bob boʻyicha xulosalar	
7.	II–BOB. Yangilanayotgan Oʻzbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlashning tashkiliy-huquqiy jihatlar	
8.	1. Oʻzbekiston mustaqilligining yangi bosqichi: millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlashga yangicha nazar	
9.	2. Mamlakatimizdagi diniy konfessiyalar va milliy maʼnaviy markazlarning millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlashdagi oʻrni	
10.	3. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi asosida millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni yanada mustahkamlash istiqbollari	
11.	2-bob boʻyicha xulosalar	
12.	III–BOB. Mavzuga doir tajriba-sinov ishlari: tahlil va xulosalar	
13.	1. Taʼlim muassasalarida mavzu doirasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	
14.	2. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlashning tashkiliy-huquqiy asoslari mavzusi doirasidagi tajriba-sinov ishlari natijalarining statistik tahlili va xulosalar	
15.	3-bob boʻyicha xulosalar tahlili	
16.	XULOSA	
17.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	
18.	ILOVALAR	
19.	GLOSSARIY	

Kirish

“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”¹.

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Ko‘p millatli davlatlar har doim o‘z hududida istiqomat qilayotgan turli xalq va millatlarning hamjihatligidan bevosita manfaaddor bo‘ladilar. Zero, bu ko‘p millatli davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Turli xalqlar, millatlarni umumiy, mushtarak maqsadlar, g‘oyalargina birlashtirishi mumkin. Shuning uchun, bugungi kunda millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omil sifatida o‘rganishga ehtiyoj katta. Bu esa millatidan qat’i nazar har bir O‘zbekiston fuqarosining maqsad va manfaatlarini ifoda etadigan, hamjihatlikka undaydigan g‘oya bo‘lib namoyon bo‘luvchi tamoyillarni chuqur o‘rganishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz”.

Respublikamizning barcha viloyatlari, tuman, shaharlarining aholisi ko‘p millatlidir. Har bir O‘zbekistonlik o‘zaro hamjihatlikda katta kuchga egaligini yaxshi biladi. Demak, ana shu hamjihatlikni totuvlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida o‘rganish, xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqish so‘zsiz dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, milliy istiqlol g‘oyasi ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining erkin va farovon hayot qurish yo‘lidagi intilishlari, hayotiy ideallarini o‘zida aks ettiradi. Lekin millatlar o‘rtasida turli nizolarni keltirib chiqarishga² urinishlarning to‘xtamayotganligini ham unutib bo‘lmaydi. Shu kabi omillarni tahlil etish ham mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obekti: Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda Toshkent-2019.

² Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.: “O‘zbekiston”. 1999. 7-tom. B. 143-144.

Tadqiqot predmeti: Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarining mazmuni, vositalari, shakl va metodlari

Tadqiqotning maqsadi: Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari yoshlar ong-u shuuriga singdirish metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish

Tadqiqotning vazifalari:

- Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tushunchasi mohiyati va ahamiyati, hozirgi vaqtda tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish zaruriyatini ochib berish:

- O‘zbekistondagi diniy bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari va o‘zbek xalqining mentalitetini izohlash;

- O‘zbekistonliklarning millatlararo totuvligi va diniy bag‘rikengligi davlatimiz barqarorligining asosi ekanligi;

- O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan milliy markazlar va diniy konfessiyalar haqida ma’lumot berish;

- Diniy tashkilotlar va ularning faoliyatini yoritish;

- Mavzuga oid manba va adabiyotlarni tahlil etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Mavzuning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- birinchidan, tanlangan mavzu ilk bor magistrlik dissertatsiyasi darajasida kompleks va tizimli yondoshuv asosida tadqiq etildi;

- ikkinchidan, ijtimoiy barqarorlikning iqtisodiy va ma’naviy asoslari tahlil etilib, O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy va ma’naviy islohatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati ko‘rsatib berildi;

- uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning istiqboldagi vazifalari, muammo va yechimlar tahlil etildi;

- to‘rtinchidan, tadqiqot ishi doirasida tajriba-sinov ishlari olib borilib, uning natijalari asosida tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari:

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil etish, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlarning totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlashdagi ahamiyatini yoritish, yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiyalar, OAV, qonunlar va meyoriy hujjatlarning ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy farazlari: mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash uchun, agar:

- mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashning tashkiliy va huquqiy choralari ko‘rilsa;
- O‘zbekistonda olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy, diniy, ijtimoiy islohotlarning ko‘lami va samarasi kengaytirilib, ushbu islohotlarning amaliy ahamiyati yoritib borilsa;
- mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashning ustuvor vazifalari aniqlanib, muammo va yechimlari qonun, meyoriy hujjatlar, OAV va diniy konfessiyalarda tahlil etilsa;
- millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ilmiy asoslansa va hayotga tadbiq etilsa ushbu tadqiqot ishi albatta ijobiy natijalarni olib keladi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharxi (tahlili):

Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanib, bu masala eng avvalo O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlaydigan milliy qonunchiligimizda o‘z ifodasini topgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (-T.: O‘zbekiston, 2019)ning “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari”

deb nomlangan ikkinchi bo‘limida ijtimoiy barqarorlikning ma’naviy asoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa, “Jamiyat va shaxs” deb nomlangan uchinchi bo‘limida aynan iqtisodiy asoslarga urg‘u berilganligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (-T.: O‘zbekiston, 1997)da hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”(-T.: O‘zbekiston, 1997) da ham ijtimoiy barqarorlik omillari o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning bir qator asarlarida va BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi tadqiqotni yoritishda asosiy manbalardan sanaladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash jarayonida 2010 yil 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan e’lon qilingan **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”** muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, unda mamlakat rahbari davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish; Huquq tizimini isloh etish; axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash; saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish; fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish; demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni ko‘rsatib berdiki, bu yo‘nalishlarda qo‘yilgan vazifalarni bajarish asosida mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning yanada samaraliroq mexanizmlarini asoslangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, shu asosda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning istiqbollarini ko‘rsatib berdi³.

³ Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr. –T.: O‘zbekiston, 2011. – 56 b.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o'zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlari oldini olishga va puxta o'ylangan strategik rejalarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayonlar tabiiyki, iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistondagi iqtisodiy barqarorlik omillari, mamlakatimizdagi demokratik jarayonlar va rivojlangan davlatlarning siyosiy tajribalari tahlili O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asarlarida o'z ifodasini to'gan⁴.

Shu o'rinda mazkur asarlarning ayrimlarini tahlil etib o'tishni lozim deb topdik:

Jumladan, "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li"(-T.: O'zbekiston, 1992, 1993) risolasining "O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari", "O'zbekiston - demokratiya va ijtimoiy adolat jamiyati", "Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat",

⁴. Qarang:

Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li,-T.: O'zbekiston, 1992 yil.

Karimov I.A. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li,-T.: O'zbekiston, 1993 yil.

Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. - T.: O'zbekiston, 1993 yil.

Karimov I.A. Iqtisodiy islohot mas'uliyatli bosqich.-T.: O'zbekiston, 1994 yil.

Karimov I.A. Islohotlar hayotni, hayot esa tafakkurni o'zgartiradi. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston, 1999 yil.

Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishi. "Xalq so'zi", 2002 yil 30 avgust

Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasidagi ma'ruzasi. – T., «O'zbekiston ovozi», 26 aprel 2003 yil.

Karimov I.A. Yangi hayotni eskiga qarash va yondoshuvlar bilan qurib bo'lmaydi. "Xalq so'zi" 2005 yil 17 fevral

Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005 yil.

Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisod talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish farovon hayotimiz garovidir. T.: O'zbekiston, 2007 yil.

Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – T.: O'zbekiston, 2008 yil.

“Ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish - mustaqil O‘zbekiston ichki siyosatining negizi”, “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlari” kabi boblarida inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik, taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qurish yo‘llari bayon qilinib, O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish, ichki va tashqi siyosatni shakllantirish tamoyillari, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari yoritib berilgan.

“O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”(-T.: O‘zbekiston, 1993) asarida esa ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda respublikaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan, O‘zbekistonning o‘tmishi, hozirgi kuni va kelgusi taraqqiyotiga to‘la-to‘kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza, xuddi ana shu tamoyillarning ishlab chiqilgan va uni amaliyotga qo‘llash yo‘l-yo‘riqlarining ko‘rsatib berilgan.

“O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari”(-T.: O‘zbekiston, 1993) kitobida yurtboshimizning o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida (1993 yil, 2 va 3 sentabr) so‘zlagan nutqi o‘rin olgan bo‘lib, unda iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalari xususida fikr yuritilgan.

Mazkur nutqda mamlakatimizda islohotlar strategiyasini amalga oshirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilab olingan:

- ta’lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish;
- aqliy va ma’naviy salohiyatni mustahkamlash;
- aholini ijtimoiy himoya qilish, chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, birinchi navbatda, kadrlar salohiyatiga, ularning kasb jihatdan tayyorligiga bog‘liq bo‘lgan aqliy va madaniy salohiyatni rivojlantirish tamoyilini ishlab chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikning iqtisodiy va ma’naviy omillari tahlil etilgan asarlari orasida “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid,

barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” (-T.: O‘zbekiston, 1997) asari muhim o‘rin tutadi. Mazkur asarda O‘zbekiston Respublikasining va butun Markaziy Osiyoning XXI asr bo‘lag‘asidagi taqdiri, rivojlanish istiqbollari, o‘z erkimizni asrab-avaylashimiz, uni bugungi murakkab va bahzan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf-xatarlardan saqlash, xavfsizlik va barqarorlik yo‘lida paydo bo‘layotgan tahdidlarga tegishli munosabat, milliy xavfsizlik va tahdid manbalari haqida muhim xulosalar bayon etilgan.

Kitobda xavfsizlik, barqarorlik, mamlakatning sobitqadamlik bilan rivojlanishiga erishish uchun islohotlarni amalga oshirish zarurligini jahon hamjamiyatida uning o‘z o‘rnini egallashini tahminlash, davlat mustaqilligi va suverenitetiga, xalq erkinligi va tengligiga erishish kabi ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlar ko‘rsatib beriladi.

Asar ikki bobdan iborat bo‘lib “Xavfsizlikka tahdid” deb nomlangan birinchi bobida XXI asr bo‘lag‘asida xalqaro vaziyat, kuchlar nisbatidagi tub o‘zgarishlar tahlil etiladi. Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlik masalalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi ham keng yoritilgan. Muallif xavfsizlikka tahdid solayotgan ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ildizlarini ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan birinchi bor har tomonlama teran ochib bergan.

Ikkinchi bob “Barqarorlik shartlari hamda taraqqiyot kafolatlari” deb nomlangan bo‘lib, unda mustaqillik yillarida mamlakatimizda ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi milliy, huquqiy davlatchilik, demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi hamda ularni yanada takomillashtirish vazifalari yoritilgan. Unda bozor munosabatlarining qaror topishi, mulkdorlar sinfining shakllanishi, aholini ijtimoiy himoyalash masalalari, mamlakatning jo‘g‘rofiy-strategik imkoniyatlari, boy tabiiy xom ashyo resurslari tahlil etilib, O‘zbekistonda keng ko‘lamli o‘zgarishlar va hamkorlik kafolatlarining yaratilishi, xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlikning o‘rnatilishi va rivojlanishi masalalari keng qamrovli yoritib berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" (-T.: Ma'naviyat, 2008) asarida ham iqtisodiy barqarorlikning muhim omili bo'lgan ma'naviyatning inson, jamiyat, millat hayotidagi o'rni bayon etilgan. "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka ehtibor" (-T.:O'zbekiston, 2009) asarida esa adabiyot ma'naviyatning tarkibiy qismi ekanligi, uning vazifalari bayon etilgan.

Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy-ma'naviy barqarorlikning ba'zi bir jihatlariga bag'ishlangan ko'plab kitob, risola va maqolalar e'lon qilinmoqda. Ular orasida A.Jalolov, J.Tulenov, M.Nurmatova, D.Komilov, Q.Karimbekov, Z.Muzaffarov, D.Vahobov, Yo.Abdullaev, A.Erkayevlarning asar va tadqiqotlarini alohida ko'rsatish mumkin⁵.

Xususan, Abdulhafiz Jalolovning "Mustaqillik ma'suliyati" (-T.:O'zbekiston 1996) to'plamida ijtimoiy barqarorlikning eng muhim omili bo'lgan mustaqillikning muhim masalalari haqidagi maqolalar berilgan; akademik Jondor Tulenovning "Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot" (-T.:O'zbekiston 1996) risolasida mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda milliy qadriyatlarning o'rni keng yoritilgan; falsafa fanlari nomzodi Abdurahim Erkayevning "O'zbekiston yo'li" (-T.:Ma'naviyat 2011) risolasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan har tomonlama puxta ishlab chiqilgan, izchillik va qat'iyat bilan amalga oshirilayotgan

⁵ Qarang:

Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. -T.: O'zbekiston, 1996.

Tulenov J. Milliy qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot.-T.: O'zbekiston, 1999 yil.

Nurmatova M. O'zbekiston va jahon xamjamiyati. - // "Ijtimoiy fikr. Inson xuquqlari" jurn., 2004 yil, 4-son.

Komilov D. , Karimov N. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar. -// "Xamkor" gazetasi, 2002 yil, 6 iyun.

Karimbekov Q. Xavfsizlik va ijodiy taraqqiyot yo'lidagi xamkorlik - // "XXI asr" zazetasi, 2004 yil, 10 iyun.

Muzaffarov Z. Mintaqaviy integratsiya rosmala iqtisodiy sahy-xarakatlarni taqazo etadi. - «Xalq so'zi». 2003 yil 27 sentyabr.

Vahobov A., Abdullaev Yo. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. - T. IQTISOD-MOLIYA, 2009 yil.

Erkaev A. O'zbekiston yo'li. -T.: Ma'naviyat, 2011 yil.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, rivojlanish yo'li tizimli ravishda keng tahlil etilgan.

Shuningdek, Nizomiy nomidagi TDPU, Tarix fakulteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi yo'nalishi magistrleri va Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishining bitiruvchilari o'z bitiruv malakaviy ishlarida tanlangan mavzuning ba'zi bir jihatlariga to'xtalishgan⁶.

Ammo yuqorida tilga olingan ilmiy tadqiqotlarda hamda oxirgi uch o'quv yilida bajarilgan magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlarida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez, kompleks va tizimli yondashuv, qiyosiy-tipologik va komponent tahlil, ob'ektivlik, tahliliy xulosa kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, farmonlari va nutqlari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, ma'ruzalari, nutqlari, intervyulari, respublikamiz olimlari va xorijiy olimlarning tadqiqot mavzusiga oid asarlari tashkil etadi.

⁶ Qarang:

Jumanov O., Vatan ravnaqi g'oyasi. Uning iqtisodiy va ma'naviy asoslari.// BMI,T.: TDPU, 2012 yil.

Sultonova D. Mamlakatimizda adolatli, demokratik jamiyatni barpo etishda "Milliy g'oya" fanini o'rganishning ahamiyati.// BMI,T.: TDPU, 2012 yil.

Haydarov R. O'zbekistonning xalqaro munosabatlarini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni. // BMI,T.: TDPU, 2012 yil.

4.Hoshimboev R. "O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar" mavzusining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qitilishi. // BMI,T.: TDPU, 2013 yil.

Tadqiqotning natijalarining nazariy ahamiyati. Shundaki, unda bayon etilgan umumiy fikrlar, xulosalar mavzuga doir keyingi tadqiqotlar uchun muayyan manba bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati esa, tadqiqot materiallaridan o‘quvchi va talaba yoshlarning bu boradagi bilimlarini yanada mustahkamlash jarayonida, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar va tadbirlarni o‘tkazishda, hamda turli toifa va darajadagi ta’lim muassasalarida yordamchi o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot ishida bayon etilgan g‘oyalar, xulosa, taklif va tavsiyalar asosida aholi o‘rtasida ayniqsa turli millatli, elatli jamoalarda ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirishda, ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishda yordam beradi.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibi: Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkizta reja, umumiy xulosa va takliflar, adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat.

I – bob Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalasini tahlil qilishning metodologik asoslari

1.1 Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash: mohiyati va tarixiy ildizlari

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, zaminimizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixi bor. Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, ma’naviyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiladigan xalqlar yashab kelgan. O‘zbekistonning jug‘rofiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida ya’ni Buyuk Ipak yo‘lida joylashgani ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy sohalarda aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotga katta ta’sir ko‘rsatgan va o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Asrlar mobaynida o‘lkamizning shahar-u qishloqlarida masjid, madrasalar, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib, turli millat, elat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o‘z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat’i nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi tuyg‘ular o‘lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ma’naviy asosini tashkil qiladi. Ma’lumki, har bir dinning o‘ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba’zan bir-biriga mutanosib bo‘lsa, ba’zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag‘rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi, turli e’tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo‘la olishi uchun xizmat qiladi. Qadim zamonlardan o‘lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylilik, nasroniylilik kabi dinlar mavjud bo‘lgan. Eng qadimiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo‘lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Zero, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o'rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham «vaxara» – buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor. Markaziy Osiyoga islom dini yoyilishi arafasida bu yerga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo'nalishidagi nasroniylik dini muhim mavqeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian yepiskopi, VIII asrda esa mitropoliti xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan. VIII asrda Markaziy Osiyo arablar tomonidan zabt etilganidan so'ng mintaqaga islom dini kirib keldi. Aholining bu dinni qabul qilishi astasekinlik bilan, bir tekis bo'lmagan holda yuz berdi. Aholining bir qismi o'zlarining qadimgi dinlariga e'tiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Movarounnahr xalqlarining islom diniga zid kelmaydigan ma'rifiyaxloqiy g'oyalari, huquqiy meyor va urf-odatlari to'la saqlanib qoldi hamda islom ta'limoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Movarounnahrda islomning o'ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo'ldi. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bag'rikenglik samarasi edi. O'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'zga din vakillari bilan o'zaro murosasini yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'ldi. Bu ta'limot Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga tayanar edi. Jumladan, Qur'oni karimning «Baqara» surasi 256-oyatida **«La ikroha fid-din»**, ya'ni **«Dinda zo'rlash yo'q»** degan qoida asosida dinni qabul qilish ixtiyoriy amal ekani va insonni zo'rlab biror dinga kiritish mumkin emasligi, har bir inson dinga munosabatini belgilashda erkin ekani qayd etiladi. Bundan tashqari, yana bir oyatda: **«Agar Rabbingiz xohlasa edi, Yer (yuzi)dagi barcha kishilar**

yoppasiga imon keltirgan bo‘lur edilar. Bas, Siz odamlarni mo‘min bo‘lishlariga majbur qilasizmi?!⁷» (*Yunus*, 99) deyiladi.

Shuningdek, ijtimoiy masalalarda ham musulmonlarning o‘zga e’tiqod vakillari bilan hamkorlik qilish, ular bilan hamjihatlik asosida munosabatga kirishishga chaqiriladi. Jumladan, boshqa din vakillari (ahli kitoblar)ning taomlaridan yeyish, ular bilan quda-andachilik qilish, ulardan uylanishga ruxsat berilgan. Bu haqida «Moida» surasida shunday deyilgan: **«Bugun sizlar uchun pokiza narsalar halol qilindi. Shuningdek, ahli kitoblarning taomi sizlar uchun halol va taomingiz ular uchun haloldir. Zinokorlik va maxfiy o‘ynash qilib olish uchun emas, balki mahrlarini bersangiz, mo‘mina ayollarning iffatilari va sizlardan oldin Kitob berilganlarning iffatli ayollari»⁸** (ham haloldir) (5-oyat).

Quda-andachilik insonlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi asosiy rishtalardan biridir. Musulmon insonning ahli kitob (xristian va yahudiylar)ga uylanishi natijasida o‘zga din vakillari bilan qarindoshlik rishtalari bog‘lanadi va ular o‘rtasida o‘zaro mehr-muruvvat tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Islom ta’limoti esa ana shunday hamkorlik va hamjihatlikka chorlaydi. Shuningdek, zarur bo‘lsa, o‘zga din vakillarining ibodatlarida, hurmat qilish, ularni bajarib olish uchun imkoniyat yaratib berishga islom dini da’vat qiladi. Jumladan, Muhammad (a.s.) huzurlariga Najrondan kelgan nasroniy dini vakillari masjidida o‘z diniy ibodatlarini bajarishga chog‘lanib turganlarida sahobiylar ularni qaytarishmoqchi bo‘ladilar. Shunda Rasululloh (a.s.): *«Qo‘yinglar, ibodat qilaverishsin»*, deganlari yuqoridagi fikrning yaqqol isboti hisoblanadi. Shu bilan birga, islom dinida kishi qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar uni inson sifatida qadrlash, unga hurmat ko‘rsatishga da’vat etiladi. Imom Buxoriydan rivoyat qilingan quyidagi hadisda bunga ishorat bor: *«Nabiy (s.a.v.) oldidan bir janoza olib o‘tildi. Shunda u zot o‘rinlaridan turdilar. Odamlar: «Yo Rasululloh, bu yahudiyning janozasi», deyishdi. U kishi: «U inson*

⁷ Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent islom universiteti, 2014. – 624 b.

⁸ Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent islom universiteti, 2014. 5-oyat

*emasmi?!» dedilar»*⁹. Demak, islom dinida millati va dinidan qat'i nazar har bir inson hurmat va qadr-qimmatga ega. Ming yillar davomida islom dini tamoyillarga sodiq holda yashab kelayotgan xalqimiz ham bu kabi go'zal fazilatlarni to'laligicha hayoti, urf-odat va an'analariga singdirib olganini ko'rish mumkin. Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag'rikenglik bilan bog'liq qadriyatlar targ'ib qilingan g'oyalarni uchratamiz. Buyuk alloma, moturidiya aqidaviy yo'nalishi asoschisi Abu Mansur Moturidiyning asarlarida bayon etilgan bag'rikenglik g'oyalari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Samarqandlik fiqh, mufasssir Abu Lays Samarqandiy esa o'zining «Bahr al-ulum» nomli tafsir kitobida Qur'ondagi «Mumtahana» surasining 8, 9-oyatlari sharhida «Sizlar bilan dinda urush qilmagan o'zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling», deb yozadi. Shayx Ahmad Yassaviy ham o'z hikmatlarida o'zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo'lishni uqtirgan:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qottig' dilozordan xudo bezor.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning bu kabi o'gitlari uzoq yillar davomida xalqimizning bag'rikeng bo'lishga, turli din va elatlar bilan tinchtotuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan. Boy tarixiy tajribaning davomi sifatida bugungi kunda ham yurtimizda bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari va o'ndan ortiq diniy konfessiyaga e'tiqod qiluvchi shaxslar bir oila farzandlaridek ahil-inoq bo'lib yashab kelmoqdalar. Ularning urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarining rivojlanishi, ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatishida mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik, ayniqsa, tinchliksevar xalqimizning bag'rikengligi muhim omil bo'lmoqda. Bu borada yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag'rikenglikka doir qoidalarining qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovor. Bu borada, eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida

⁹ Imom Buxoriy "Al-jome as-sahih" asaridan Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimai Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991

mustahkamlangan «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»¹⁰, degan qoida diniy bag'rikenglik uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z dini va e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart», degan norma asosida turli diniy e'tiqoddagi insonlarning dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanligi e'tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, respublikamizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, «diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatga aralashmaydi». Bu qoidaning mohiyati shundaki, O'zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi hamda ular o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, xalqaro huquqiy hujjatlarda ham e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 1948-yili qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida «Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir», deb ta'kidlangan. 1966-yili qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ham «Biror odam ham o'z ixtiyori bilan o'z dini va e'tiqodiga ega bo'lish yoki ularni qabul qilish erkini kamsitadigan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2019.

majburiy xatti-harakatlarga duchor bo'lmashligi kerak», deb ko'rsatilgan. Bu esa, diniy bag'rikenglikning nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanidan ham dalolat beradi. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi huquqiy meyorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, mustaqillikkacha respublikada bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi Yevangel-Lyuteran jamoasi, Rim-katolik cherkovi, «Yettinchi kun adventistlari» diniy tashkiloti, Bahoiylar jamoasi, yahudiylar diniy jamoasi kabi diniy konfessiyalar yurtimizda rasmiy faoliyat yurita boshladi. Bugungi kunda O'zbekistonda 2015-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, 16 konfessiyaga mansub jami 2238 ta diniy tashkilot, jumladan 2039 ta masjid, 20 ta markaz, 12 ta diniy ta'lim muassasasi, 3 ta monastir, shuningdek, jami 164 ta noislomiy diniy tashkilotlar rasmiy faoliyat olib bormoqda¹. Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniye orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni berib borishi, Buxoriy, Termiziy, Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rinlidir. Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O'z navbatida, pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda. Bundan tashqari, Prezidentimiz farmoniga ko'ra, 1903-yilda qurilgan «Svyataya Bogoroditsa» ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Yevangel-Lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish

maqsadida «Vidergeburt» nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996-yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligi keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi. Shuningdek, xristianlarning «Rojdestvo», «Pasxa», yahudiylarning Rosh-Ashona (Yangi yil), Yom-Kipur (Gunohlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylarning Sagaalgan (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug'ilgan kuni) kabi bayramlarni nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu yurtimizda yashayotgan barcha din vakillarining o'z diniy e'tiqodlarini emin-erkin amalga oshirishlari va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilayotgan tadbirlar jumlasiga kiradi. Quvonarli jihati shundaki, bu tadbirlar diniy barqarorlik, konfessiyalararo samimiy va do'stona muhitning vujudga kelishi va eng asosiysi yurtimizdagi tinchlikning barqaror bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

1.2 Ajdodlarimiz merosida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik talqini

Qadim-qadimdan din aksariyat milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar o'sha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog'liq. Chunki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalarga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag'rikenglikka chorlaydi. Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida ham diniy bag'rikenglik targ'ib qilingan g'oyalarni uchratamiz. Jumladan, alloma Abu Mansur al-Moturudiyning "Tilovat ahli sunna" asarida Qur'oni karim oyatlaridan birini tafsir etib, "Cherkov va sinogoglarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham musulmon o'lkalarda shu davrgacha ular saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir", degan fikrni bildirgan. XV asr boshlarida Temur saroyida bo'lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Temur Samarqandda turli din vakillarini yig'adi, ularga iltifot ko'rsatadi hamda xristian diniga e'tiqod qiluvchi mehmonlarning turli ehtiyojlarini bajarish uchun alohida mas'ul shaxs tayinlaydi. Ular bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashni tayinlaydi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Bag'rikenglik, o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, xis-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari va g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish"¹¹.

Holbuki yuqorida sanab o'tilgan boshqa ijobiy tushunchalarning mazmunida aniq sharoitni hisobga olmay shunchaki ko'rib chiqiladigan va hech qanday limitlarsiz qolaveradigan jarayonlar va nuqtai nazarlarning yo'nalishiga asosiy urg'u beriladi. "Tolerantlik"da esa cheklash, asosiy imperativ hisoblanadi, bunda o'z psixologik faoliyatining emotsional, ratsional va amaliy-iroda sohalariga etarli ravishda ega bo'lgan va o'z kechinmalari va harakatlarining yo'nalishini ham, mazmunini ham nazorat qila olish uchun sotsiumda amalga oshiriladigan sub'ekt (sub'ektlar)ning mavjudligini taqozo etadi. "Notolerantlik" esa, aksincha, tanqidiy-buzg'unchilik xarakterida to'la erkinlikni nazarda tutadi, bu harakatlarning chuqurligi va davomiyligi (xech bo'lmaganda ularning tashqi ko'rinishlari) notolerant sub'ekt (sub'ektlar) tomonidan o'zini-o'zi biron-bir tarzda cheklashlar nimaligini bilmaydi.

Shunday qilib, tolerantlik tamoyili shaxslar o'rtasida, turli sivilizatsiyalarga mansub jamiyatlar o'rtasida, erkaklar bilan ayollar o'rtasida, katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasida, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida o'zaro hurmatni nazarda tutadi. Turli ziddiyatlar sharoitida tolerantlik — atrofdagilarga zarar yetkazmagan xolda o'zini-o'zi qaror toptirishdir. Tolerantlik his-tuyg'ularni jilovlaydigan ongli sergak nuqtai nazardir. Tolerantlik, deb xulosa qiladi A. Kapto, shunday bir kadriyatdirki u "o'zgalar bilan qarama-qarshi turishga emas, balki tinch-totuv yashashga, "o'zgalar"ni inkor qilishga emas, balki tan olishga, zo'ravolikka itoatkorona sabr-toqat bilan qarashga emas, balki uni bartaraf etishga asoslanadi. Faol sabr-toqat - toqatsizlik, boshboshdoqlik va har qanday qilmishlarni kechirib yuborishning haddan tashqari hukmli shakllarini qabul qilmaslikdir.

Xullas, tolerantlikning mohiyatini xar kim har xil tushunadi, ba`zilar uni asosan sabr-toqat deb tushunsa, boshqalar insoniyatning birligi, boshqalar huquqini

¹¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 5 – jild, 2005, -B. 345.

hurmat qilish va boshqacha bo'lish huquqi deb tushunadi, yana boshqalar esa tolerantlikni jazavalarga, nomuayyanlik vaziyatiga, mojaro vaziyatiga chidamlilik deb tushunadilar.

Ko'pgina mualliflarning maqolalaridan iborat bo'lgan monografiyada tolerantlikning mohiyatiga berilgan ta'rif bizga ma'quldir. Agar tolerantlik (sabr-toqat) mohiyatini qisqacha ta'riflaydigan bo'lsak, avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu-har qanday jamiyat, xar qanday ijtimoiy qatlam, har qanday fuqaro (uning jinsi, millati, yoshi, dini va irqidan qat'i nazar) ma'naviy, huquqiy, siyosiy madaniyati sifatidir. Tolerantlik turli shakllarga: ahloq, fe'l-atvor, ijtimoiy psixologiya, ongda aks etadigan shahsiy, ijtimoiy shakllarga va qonunchilikda, siyosiy amaliyotda aks etadigan davlat shakliga egadir.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy ijodida bag'rikenglik g'oyalari yuksak rol o'ynaganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Uning "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" ("Risola fit tarbix ala asbob as-saodat"), "Shaharni boshqarish" ("As siyosat an-madaniya"), "Urush va tinch turmush haqida kitob" ("Kitob fi maoyish va-l xurub"), "Fazilatli hulqlar" ("As-siyrat al-fazila"), «Fozil shahar odamlari qarashlari» singari asarlari o'zining boy insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari singdirilganligi bilan muxim ahamiyatga egadir. Forobiyning boy ilmiy merosi shunisi bilan xarakterliki, unda barcha davrlarda barcha jamiyatlar intiladigan ideal sifatlarga: fozillar jamiyati, fozillar shahri hamda fozil inson tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlariga muhim ahamiyat qaratadi. Shu bilan birgalikda Forobiy ideallikka erishish yo'llarini hamda nazariyasini ishlab chiqqan. Ideallik haqida gap borar ekan, bag'rikenglik uning o'zagini tashkil etganligini ta'kidlab, quyidagi misollar orqali keltirib o'tishimiz mumkin: Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi asos-insoniylikdir, shuning uchun xam, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj seziladi.

Shu sababli misol uchun zarur bo'lgan kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi.

Sharqning buyuk qomusiy mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniy ijodida xam bag'rikenglikka muhim ahamiyat qaratilib, bu hol uning boy ilmiy merosiga ham singdirilgan. Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning deyarli barcha soxalari, shu jumladan, tarix ilmi bilan xam maxsus shug'ullanib, juda boy ilmiy meros qoldirgan. Uning ilm-fan, madaniyat, din, falsafa, tabiiy fanlar, riyoziyot, ilmi hay'at, ilmi nujum, geodeziya, xaritashunoslik, tibbiyot, dorishunoslik, ma'danshunoslik va boshqa soxalarda qoldirgan ilmiy va tarixiy asarlari, olim yashagan X-XI asrlarda ham, keyingi davrlarda ham O'rta va Yaqin Sharqda, ayniqsa, E.Zaxau tadqiqotlaridan so'ng g'arb ilm-fani, tarix fani rivojiga bexad salmoqli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Beruniyning «Hindiston» asarining ilmiy va ma'naviy ahamiyati xususida mashxur rus sharqshunosi baron V.E.Rozen' «Bu xindistonshunoslikda shunday bir ulug'vor «haykal»ki, u o'z sirasiga ko'ra yakka-yu yagona va unga teng kelishi mumkin bo'lgan boshqa asarni g'arb va sharqning butun qadimgi va o'rta asr ilmiy adabiyotlarida xam uchratish mumkin emas», - deb yozgan edi.

Beruniy ilmiy merosi insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari bilan jilolangan. Shular sirasida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlari ahamiyatlidir. Beruniy «Hindiston» asarida ayni paytda aniq fanlarning mutaxassisi sifatida ham eng ko'p diqqat qilgan yo'nalish qadimgi eralar, tarixiy taqvimlarning tuzilishi, ishlash tartibi va ularning o'ziga xosliklaridan iborat¹².

Bu asarda ham Beruniy o'zining qat'iy qoidalariga amal qilib, barcha halqlarga teng, oqilona, insoniy sabr-toqat hamda tolerantlik namoyon qildi.

¹² Murtazayeva R. O'zbekiston millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –T: «Universitet», 2007, B. 20-21.

Zamonaviy vaziyatni baholab, hamda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi eng muhim vazifalarni belgilagan holda, ularga qarshi kurashda turli-tuman manbalardan foydalanish lozim. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston zaminida yaratilgan ma'rifatparvarlik saloxiyatining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini yuzaga chiqarish, ommalashtirish lozim. Bunda ziyolilar ijodining yirik bag'rikenglik namunalari ahamiyatlidir. Ular Sharq va G'arb mualliflarining merosini qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, qaysi irq va dinga e'tiqod qilishiga qaramasdan, o'qib o'rganganlar. Bu Abu Abdullox Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va ko'plab o'tmishdagi boshqa olim va mutafakkirlarning ijodida yorqin namoyon bo'ladi.

Ko'pgina yirik vatandoshlarimizning falsafiy-tarixiy ijodida diniy va zamonaviy bag'rikenglik an'anaviy uzviy bog'langanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Dinlararo munosabatlarga tegishli bo'lgan Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari, Abu Rayhon Beruniyning fikrlari, Imom al Buxoriy va Xakim at-Termiziyning hadisi shariflari hamda boshqa ko'pgina mutafakkirlarning asosiy g'oyasini bag'rikenglik tashkil qiluvchi asarlari misol bo'ladi.

Masalan, olimlarning ta'kidlashicha, Abu Nasr Forobiy, "ulug' xorazmlik" Abu Rayxon Beruniylarning tarixiy-falsafiy fikrlarining tolerantlik xarakteri avvalambor turli xil falsafiy, diniy va irqiy tabaqalarga mansub bo'lgan keng ko'lamdagi xalqlarga tushunarli bo'lganligida namoyon bo'ladi. Agar Forobiyning ilmiy merosida qadimgi yunon mutafakkirlaridan Platon, Aristotel, Galen, Zenon, Aleksandr, Afrodiziyskiy va boshqalarning falsafiy va tabiiy, ilmiy qarashlari bitilgan risolalari keng tarzda ko'rsatilgan bo'lsa, Beruniyning ilmiy faoliyatida esa undan tashqari, Hindiston, Eron, Markaziy Osiyo hamda Arab dunyosi davlatlari va boshqa xalqlarning falsafiy yutuqlarini o'rganish muammolari ko'tarilgan.

Bu buyuk olimlarning tarixiy falsafiy fikrlarining tolerantlik xolati diniy, siyosiy, irqiy va ma'muriy chegaralarga qaralmagan holdagi kenglikda, balki o'zlarining hamda boshqa xalqlarning falsafa tarixiga oid savollar ustida ishlagan muammolariga ongli ravishda metodologik nuqtai nazardan qarashlarda ko'rinadi. Forobiyning falsafiy oqim va ma'lumotlarida berilgan xar xil mamlakatlarning tarixiy-falsafiy jarayonlarini qandaydir mafkuraviy yoki ma'naviy diniy doiraga

olmasdan ko'rib chiqadi. U ob'ektiv falsafiy bilimlarga erishish imkoniyatlari kafolatini nuqtai nazarlarining, qarash va yondoshishlarning turli-tumanligi va xilma-xilligida ko'radi. Bu esa uning falsafani evolyusion ko'rinishida bayon qilganligida namoyon bo'ladi.

Bag'rikeng bo'lmaslikning xavfliligi to'g'risida keyinchalik Beruniy o'zining "Geodeziya" degan kitobida shunday degan edi, "Kimda kim aql bovar qilmaydigan darajada mutaassiblikka (jonkuyarlikka) berilgan bo'lsa, u xammaning ishonchini yo'qotadi va qarg'ishiga qoladi, uning nomi "sin" harfi bilan tugaydi". Ushbu holatda Beruniy yunonlarning nomini nazarda tutadi. Buyuk olim fandagi bunday chidab bo'lmaydigan yondashishlarni, bu jihatdan falsafadagilarni qoralaydi va qattiq tanqid qiladi.

Boshqa bir xalqlarning, o'zga e'tiqod vakillarining falsafiy ilm natijalari ob'ektiv va shu bilan bir vaqtda bag'rikenglik qarashlari tamoyili Beruniy izlanishlarida o'sha davrda mavjud bo'lgan sharq olimlari ichida birinchi bo'lib hind falsafasiga izohlar yozganshi ko'rsatadi. U o'zining rahbarligi ostida amalga oshirilgan tarixiy falsafiy tadqiqotlarining metodologik prinsiplari to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri gapirib, aynan mana shu uning ijodiyotining muhim asosini tashkil etar edi. Beruniy diniy sabablarga ko'ra hind falsafasini o'rganishda uning izdoshlariga nisbatan asossiz ayblar ishlatmaganini ta'kidlaydi: "Zero hindlar e'tiqodi shundayki, bu ularning o'zlarigagina yaxshiroq ko'rinadi va tushuniladi". Ayniqsa bu ularni "Din bu faqatgina ularning e'tiqodi, fan - esa faqatgina ularda mavjud bo'lganlaridir " deb ularni ayblaganda yorqin namoyon bo'ladi.

Boshqa xalqlar va davlatlarga nisbatan, masalan, Xorazmda Arablar istilosi, Maxmud G'aznaviyni Hindistonga xarbiy yurishlari paytida yuzaga kelgan toqatsizlik va zulmning kuchayishini oldini olishni qattiq qoralaydi. Uning fikriga ko'ra bunday siyosatning eng mudhish natijalardan biri, bu ilm-ma'rifatga, shu jumladan, falsafiy ilmlarga keltiradigan katta zarardir. Beruniy irqiy kamsitishga asoslangan xar qanday zulmni qoralagan xolda, barcha insonlarning shakllanish o'zagi bitta asosga tayanishini ta'kidlab, turli xalqlar, ijtimoiy guruhlar va muayyan insonlar o'rtasidagi tinch-totuv munosabatni amalga oshirilishiga halaqit beruvchi milliy va diniy chegaralanishlarga qarshi chiqadi.

Buyuk davlat arboblari Amir Temur, Ulugʻbek, Bobur dinlar oʻrtasida, millatlar oʻrtasida totuvlikni mustahkamlashga butun umrlarini bagʻishlaganlar va bu sohada muayyan muvaffaqiyatlarga erishganliklari tarixiy manbalardan maʼlumdir. Turkistonning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar ziyolilari boʻlmish jadidlar ham diniy bagʻrikenglik gʻoyalarini roʻyi rost ifodalab berganlar. Ularning atoqli namoyondalari: Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar oʻz asarlarida ham, amaliy faoliyatlarida ham bagʻrikenglik, yaʼni tolerantlik gʻoyalarini targʻib qildilar. Chunonchi, A.Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohining hikoyalari” asarlarida diniy va milliy bagʻrikenglik mavzui muhim oʻrin olgan.

Abdurauf Fitrat diniy bagʻrikenglik gʻoyasini ilgari surib, maxdudlikni rad etadi. U ulamolarning hech bir gunoxsiz pok ekaniga xalqning cheksiz ishonch bilan qarashi xunuk oqibatlarga olib kelishni koʻrsatish maqsadida tez-tez xristianlik tarixi, jumladan inkvizitsiya davriga murojat qiladi. Fikrlari isboti uchun koʻplab dalillar keltiradi. Chunonchi, Fitrat tanazzul sabablarini quyidagi muloxazalar orqali koʻrsatib beradi: Xaqiqatdan ham Buxoro va buxoroliklar holi juda achinarli boʻlib, voqean bu xudpisand ulamolarning ishlari millatning tanazzuliga sabab boʻlgʻon.

Bagʻrikenglik, erkinlik va barcha xalqlarga nisbatan doʻstona munosabat jadidlarning siyosiy faolligi yuqori bosqichga koʻtarilishining bosh omili edi. Bu ayniqsa Turkiston muxtoriyati gʻoyasida yaqqol namoyon boʻldi. Muxtoriyat jahon tajribasida sinovdan oʻtgan umuminsoniy gʻoyalarga asoslangan milliy davlat qurish yoʻlidagi ilk urinish edi.

Bu davrga kelib taraqqiyparvarlarning diniy va milliy bagʻrikengligi umumdavlat siyosati maqomini olib, yagona tushunchaga aylandi. Lekin, jadidlarning bagʻrikengligi islom madaniyatining ahamiyatini birinchi oʻringa qoʻyishlariga monelik qilmadi. Ular jahon sivilizatsiyasi yutuqlarida musulmonlarning ham hissasi borligini hamisha taʼkidlab kelgan. Oʻz maqolalarida Arastu, Aflotun, Suqrot asarlaridan keng foydalangan, ularga zamondosh falsafiy oqimlardan yaxshigina xabardor boʻlgan jadidlar ular bilan Sharq islom falsafasi oʻrtasida mushtarak jixatlarni topdi. Jadidlar madaniyatlararo muloqotning

dunyoqarash bilan bog'lik tamoyillarini qattiq turib himoya qildi. Buni faqat zamonaviy jarayonlar ta'siriga yo'yish unchalik to'g'ri emas. Bag'rikenglik O'rta Osiyoda o'zining tarixiy ildizlariga ega. Ko'p asrlar mobaynida bu erda turli etnos va din vakillari tinch- totuv yashab kelgan. Shuning uchun ham jamiyatning bir kadar ilg'or qismi ongida, diniy va irqiy mansubligidan qat'i nazar, millatlararo hamjixatlik va erkinlik, atrofdagi kishilarga nisbatan do'stona munosabat mavjud edi.

1.3 Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan islohotlar

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakkayu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy madaniyati, ma'naviyati va tarixi, zahmatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzanlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega, Bu asoslar mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustaxkamlab qo'yilgan. Xususan, uning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir", — degan qoida mustahkamlab qo'yilgan¹³.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuygulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan;

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining

¹³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T., 2019.

ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkorona millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy aqidaparastlik, diniy fundamentalistik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak muayyan hollarda ular omuxtalashgan shaklda ham chiqishi mumkin. Axborot globallashuvi kuzatilayotgan bugungi kunda turli g'oyalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barkarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda 36 mamlakatda 40 ta, 2001 yilda esa 30 mamlakatda 36 harbiy nizo sodir bo'lgan. Ularning 27 tasi, ya'ni 75 foizi bundan 10 yillar oldin boshlangan. Bu nizolarning aksariyati bir mamlakat ichida kechganini e'tiborga oladigan bo'lsak ularning milliy, etnik, diniy va irqiy asoslardan kelib chiqqan fuqarolik urushlari ekanini anglatadi. Bemalol aytish mumkinki, jahonning turli nuqtalarida alangalanib turgan bunday nizolar aksariyat hollarda millatlararo munosabatlarda millatlararo totuvlik va bagrikenglikning yo'qligi ham sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, respublikamiz milliy siyosatining asosiy tamoyillari hayotda ham o'z ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur. Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlool yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek keng qamrovli madaniy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli O'zbekistonliklarning har bir avlodi milliy istiqlool g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliy totuvlik va bag'rikenglikni yanada mustahkamlab boradi. Zero, milliy g'oya — barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir.

Respublikada istiqomat qilib turgan 130 dan ortiq millat va elatning har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin. Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko'p millatli. Respublikamiz ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullab yashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir o'zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimizdan har biri buni dildan teran his qshshoqdalar. Olib borilayotgan oqilona milliy siyosat tufayli respublikamizda qaror topgan tinchlik ijtimoiy totuvlik o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, diniy qarashlari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uygunlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqyealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr-oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuygusini qaytaqayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi,

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989 yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston Hukumatining qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi 1991 yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992 yilning yanvarida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazi (RBMM) to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi byolgilab qo'yilgan. Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatiga raxbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi. Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi.

Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonmayon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik iudaizm kabi dinlar yonmayon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar birbiridan o'rganganlar, ustozshogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan. Aytish mumkinki, diniy ong rivojlanib, dinning mohiyatini chuqurroq anglash bilan diniy bag'rikenglik ham rivojlana bordi. Bu hozirgi davrda diniy bag'rikenglikni yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zaro teng huquqlilik, hamdo'stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha

kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir. U o'ziga berilgan umri davomida yashashga, ma'naviy aqliy jihatdan takomillashib, yerdagi hayot sharoitlarini yaxshilash uchun kurashishga, ijod qilishga haqli. Ma'naviy kamolotga erishish uchun inson yashashi, yaxshi sharoitlarga ega bo'lishi kerak. Demak yerdagi hayotni saqlab qolish, rivojlantirish barcha kishilarning umumiy maqsadlaridir. Diniylik dunyoviylikni inkor qilmaydi, u bilan ba'zan yonmayon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zaro yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Dunyoviylik ya'ni shu moddiy hayotni rivojlantirishga yo'nalganlik diniylikning ham maqsadlari bilan mos tushadi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik yaxshilik halollik tinchlik do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi. Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zaro guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. Shuningdek ayrim guruhlarning garazli manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi. Bu haqida mamlakat O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: "Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqiyligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabada bo'lishdan iboratdir. Aynan fanatizmga

yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to'loqini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar"¹⁴.

O'zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka hech qanday o'rin qolmaydi. Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G'arb sivilizasiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urfodatlar, rangbarang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog'liq orzu umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik barrikenglik qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon. Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosas borasida faqat MDX davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Xillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega. Tariximizning

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.

har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari birbirlariga nisbatan hamjihatlik barrikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik osoyishtalik totuvlik millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi", degan so'zlari hayotga izchillik bilan tadbiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda bugungi kunda ikki muxim masala, bir tomondan, tinchlik va ezgulik dini islomni "soxta islomchi"lardan, ya'ni ma'rifiy islomni siyosiylashgan jangari islomdan himoya qshgash, ikkinchi tomondan, ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatimizda e'tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruhida faoliyat yuritishlarining oldini olish muhim. Bu, o'z navbatida, yurtimizdagi millatlararo hamjihatlik va diniy bagrikenglikni yanada mustahkamlaydi. So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgaya harakatlarga sabab bo'lmoqsa. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hych qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu

holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorliga uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz"¹⁵.

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rimkatolik cherkovi, To'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yaxudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

¹⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.

I – bob yuzasidan xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik yurtimizda kecha yoki bugun paydo bo'lgan tushuncha emas, chunki bu tushunchalar tosh bitiklarda, topilgan yodgorliklarda va ajdodlarimiz asarlarida o'z ifodasini topgan. Diniy bag'rikenglik — turli milat va elatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, ornomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy bag'rikenglikni anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi. Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir. Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

II – bob Yangilanayotgan O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashning tashkiliy – huquqiy jihatlari

2.1 O'zbekiston mustaqilligining yangi bosqichi: millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga yangicha nazar

O'zbekiston mustaqilligi 1991 yilligi e'lon qilingandan so'ng bozor munosabatlari hayotga singishi jarayonida davlatimizda yangi davrga xos jarayonlar namoyon bo'la boshladi;

birinchidan, hududimizdan ruslarning va umumiy yevropaliklarning ko'chib ketishi jiddiy kamaydi. Albatta, ularning ma'lum qismi sekin-asta borish joylarini aniqlab, ko'chib ketmoqdalar. Bu jarayonni to'xtatish mumkin emas, chunki odamlarning jahon bo'ylab o'zlariga qulay joy izlab ko'chib ketish yoki ko'chib kelishga xaqlari bor. Bu – demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biridir. Ikkinchilan, ayni vaqtda O'zbekistonga ko'chib keluvchilarning soni ko'chib ketayotganlardan kam emas. Ana shu sababli ko'chib yuruvchilar tarozisining pallalari barovar – teng, desak bo'ladi.

Uchinchidan, MDH miqyosidagi vaziyatni qiyosiy o'rganib, boshqa davlatlardan, ayniqsa Rossiya federatsiyasidan ruslar bilan bir qatorda boshqa millat vakillari ham ko'chib kelmoqdalar.

Mustaqillik sharoitlarida millatlararo jarayonlarning bunday tus olishi bizni bezovta qilmaydi, chunki davlatimizda hammaga yer va suv yetarlidir. Chetdan kelsalar, barchaga eshigimiz ochiq. Huddi shu maqsadda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida turli chet el firmalari, birlashmalari va guruhlar yil sayin ko'plab kelib joylashmoqdalar. 1897 yidda O'zbekiston hududida 70 millat va elat vakili, 1926 yilda 91, 1959 yilda 113, 1989 yidda 123, hozirgi paytda esa 136 millat va elat vakillari yashab turganligi ma'lum.

O'zbekiston hozirga zamon davlatlari orasida eng ko'pmillatlilaridan biridir.

Mustaqillik tufayli millatlararo munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tarish, ularni tubdan o'zgartirib xalqning o'z tashabbusi bilan shakllantirilgan yangi uslublar va vositalarni topish imkoniyati paydo bo'ldi. Endi millatlararo munosabatlarni yuqoridan ko'rsatma bilan emas, balki har bir millat va elat vakillarining

tashabbusi, aqli-zakovati ichki ruhiy talabi va ehtiyojlari asosida shakllantirish iloji yuzaga keldi.

Bular¹⁶:

- 1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarini jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish;
- 2) Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan mehnat qilish;
- 3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati tarixi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga o'z nomi berilgan asosiy millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan-yangi shakllarda, turlarda va tusharlarda ravnaq bo'lib bormoqda,

shu jumladan¹⁷:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf – odatlarini o'rganish to'garaklari ishlamoqda;
- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va davlat tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;
- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;
- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilmoqda, festivallar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlar, oqin va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblari va madaniyat nomoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari bo'yicha ko'plab qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, milliy markazlar tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan mustaqillik ilk kunlaridanoq

¹⁶ Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: —O'AJBNT|| Markazi, 2001.33-bet.

¹⁷ Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: —O'AJBNT|| Markazi, 2001.34-bet.

yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining tinchligini va birdamligini saqlash maqsadida Baynalmiman Markazlar, milliy Markazlar ochish bo'yicha qarorlar qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida belgilab qo'yilganidek "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." Ushbu modda orqali yurtimizda istiqomat qilayotga turli elat va millat vakillarining diniy e'tiqodlari hurmat qilinishining yaqqol misoli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Barchamiz uchun aziz va muqaddas bo'lgan jonajon yurtimizda turli millat vakillarining tinch va totuv istiqomat qilayotgani, yagona Vatan tushunchasining qalblarda hukmron ekani mamlakatimiz mustaqilligining, taraqqiyotining muhim garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida ta'kidlanganidek, biz eng katta boyligimiz bo'lmish, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar o'rtasidagi do'stlik va ahillik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yaqin va uzoq qo'shnilarimiz bilan o'zaro hurmat va hamjihatlikni yanada kuchaytirishni o'zimizning eng ustuvor vazifamiz sifatida ko'ramiz.

Navoiy viloyatida turli millat va elat vakillari o'zaro ahil, totuv yashab keladi. 9 milliy madaniy markazlar tomonidan hamjihatlikda amalga oshirilayotgan ishlar bu yerda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Mahallalarda, madaniyat saroylari, ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli tadbirlar samarasida millatlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik aloqalari tobora mustahkamlanmoqda, – deydi viloyat hokimligi jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha kotibiyati mudiri Akmal Asatov. – Bugungi

kunga qadar ellikka yaqin ana shunday uchrashuv va festivallar, davra suhbatlari o'tkazildi.

“O‘zbekiston – umumiy uyimiz” shiori ostida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan madaniyat va do‘stlik festivalida viloyatdagi turli millat vakillarining katta tayyorgarlik va zo‘r ishtiyoq bilan ishtirok etishi tahsinga loyiq. Festivalda o‘z an‘ana va milliy urf-odatlarini keng tarannum etish asnosida, barchamiz uchun yagona bo‘lgan Vatanimizni ulug‘lovchi kuy-qo‘shiqlar baralla yangraydi. “O‘zbekiston – ko‘p millatli ahil oila”, “Ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali O‘zbekiston” nomli ko‘rgazmalarning doimiy ravishda tashkil etilishi madaniyat va an‘analarni yanada rivojlantirish, yoshlar ongida ularga nisbatan hurmat va ehtirom hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda milliy madaniy markazlar va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining roli” mavzuidagi davra suhbatlari va boshqa qator uchrashuv hamda tadbirlarning samarasi yuqori bo‘layotir. Obod turmush yilida milliy madaniy markazlar va jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash, markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Obod turmushni shakllantirishda milliy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminarlarning tizimli ravishda o‘tkazib kelinayotgani milliy madaniy markazlar faoliyatini o‘rganish, ularga ko‘mak berish va qo‘llab-quvvatlash, kelgusidagi vazifalarni belgilab olishda muhim omil bo‘layotir. Seminar va uchrashuvlarda markazlar tomonidan turli millat vakillari va ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni ezgu g‘oyalar atrofida birlashtirish, qadriyat va an‘analarga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Vatanimizning tinchligi, xavfsizligi, kelajak taraqqiyoti va farovonligi turli din va millatga mansub fuqarolarning ma’naviy yuksaklik darajasiga, ularning o‘zaro totuvligi hamda hamjihatligiga bog‘liqdir. Zero, davlatimiz rahbari istiqlolimizning 22-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zida ta’kidlaganidek, mustaqillik deganda, uning ma’no-mazmunini biz avvalo huquq deb qabul qilamiz. Mustaqillikka erishish – bu o‘z taqdirimizni qo‘limizga olib, yurtimizning yer osti va yer usti boyliklariga ega bo‘lish, biz qanday ulug‘ tarix, madaniyat va

ma'naviyatga ega ekanimizni, o'zligimizni chuqur anglab, beqiyos salohiyatimizni ishga solish, qadriyatlarimizni, dinu diyonatimizni tiklash kabi buyuk va muqaddas burchimizni amalga oshirishdir.

Shu maqsadda bugungi kunda milliy madaniy markazlar va mahallalar, ta'lim muassasalari va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish jadal amalga oshirilayotir.

Markazlar qoshida milliy hunarmandchilik va san'at to'garaklarining tashkil etilgani, ular faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor turli millat vakillarining o'z an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylashda muhim omil bo'lmoqda.

2.2 Mamlakatimizdagi diniy konfessiyalar va milliy ma'naviy markazlarning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashdagi o'rni

Mustaqillik yillarida ko'p millatli respublikada fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan rivojlanishida qo'lga kiritilgan katta yutuqlardan biridir. Chunki 120 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan mamlakatda jamiyatni tubdan yangilash, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish osonlik bilan ko'chmaydi. Bunday paytda davlat siyosati izchil va haqqoniy, dadil va qat'iyatli bo'lmog'i lozim.

Mamlakat rahbariyati milliy masalani oqilona, qonun yo'li bilan hal qilishga, millatlararo mojarolarni tinch hal qilish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada hukumat eng avvalo Konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutdi. Aholining barcha tabaqasi va turli millat vakillari diqqatini bir nuqtaga qaratdi. Qonun oldida hammani teng qilib qo'ydi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona vatan uchun javobgarlik hissini kuchaytirdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddima qismida O'zbekiston xalqi, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi,— deb yozib qo'yilgan.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, ko'p millatli davlatda o'z fuqarolari milliy va madaniy manfaatlarini, himoya qilish ularning ehtiyojlarini qanoatlantirish milliy davlat chegaralari doirasida cheklanib qolmasligi lozim.

O'zlarining tarixiy vatanlaridan tashqarida yashovchi millatlar uchun hamma joyda, hamma vaqt milliy ehtiyojlarini qondira olishlari uchun zarur sharoit yaratilishini taqozo etadi¹⁸.

Bu talab birinchi galda milliy xududiy tuzilmalari bo'lmagan xalqlarda alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar, milliy siyosatga bir yoqlama qaralar edi. U hech bir ittifoqdosh respublikada hal etilmagan edi. Milliy masala borasida sobiq Markaz tomonidan bir yoqlama yo'l tutib kelindi. Bu esa oqibatda butun SSSRning, jumladan O'zbekistonning ham ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga katta ziyon etkazdi.

Sobiq SSSR Konstitutsiyasida milliy ravnaq, milliy madaniyatlar rivoji xususida fikrlar bayon qilingan bo'lsa-da, amalda ulug' og'achilik, ruslashtirish siyosati hukmron edi. Kommunistik partiya dasturida barcha millatlar va elatlarni o'zaro yaqinlashtirish asosida milliy xususiyatlarni yo'qotish va yagona, madaniyatsiz, yasama xalqni vujudga keltirish tendensiyasi davlat va hukmron partiya siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Darhaqiqat, KPSS programmasida yagona sovet xalqi vujudga keldi. Bu sovet davlati milliy siyosatining ulkan yutug'idir deb surbetlarcha bayon etilgan edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach millatlararo munosabatlarda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Ko'p millatli mamlakatda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi, - deyiladi.

Mazkur moddada qayd etilgan qoida jahondagi biror, bir Konstitutsiyada uchramaydi. Unda Konstitutsiya darajasida O'zbekiston xalqi tushunchasining ta'rifi bayon etilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat

¹⁸ Jo'raev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.429.

qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir.

O'zbekiston fukaqolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Konstitutsiya O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlarini va milliy an'analarini hurmat qilishni kafolatlaydi.

Mazkur moddada mustahkamlangan O'zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyili inson huquqlariga oid barcha xalqaro hujjatlarga, jumladan O'zbekiston Respublikasi nomidan uning Prezidenti imzolagan yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi talablariga to'la mos keladi.

Mazkur prinsip mamlakatimizdagi tinchlik, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmokda. Ana shu talablardan kelib chiqib mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy choralar belgilandi. Shuni aytish lozimki, mamlakatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda tilning o'rni va roli benihoyadir. O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili maqomini oldi, bu o'z navbatida uning mamlakatda yashovchi fuqarolar o'rtasida millatlararo aloqalar vositasiga aylanishiga imkon berdi.

Ma'lumki, 1989 yil oktyabrda Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan bunday zarur chora respublikada istiqomat qilayotgan rusiyzabon aholi tomonidan bir xil qabul qilinmadi. Ularning ruhan tayyor emasligini hisobga olib mamlakat rahbariyati til dasturini amalga oshirishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymadi, unga hayot taqozosi asosida o'zgartirishlar kiritib bordi.

Mamlakatda muntazam sur'atda til siyosati haqida tushuntirishlar olib borildi, mavjud vaziyatni hisobga olib, zaruriyatga qarab ish yuritish, hujjatlarni rasmiylashtirish, turli ma'muriy-idoraviy munosabatlarda rus tili va boshqa millatlar tillaridan foydalanila boshlandi. Shuning uchun bu masala 1995 yil 21 dekabrda Oliy Majlis IV sessiyasi kun tartibiga kiritilib, O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun qabul qilindi. Ushbu

Qonunning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning xududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi, —deb yozib qo‘yildi.

Bu qoida millatlararo do‘stlik munosabatlarini yaxshilashga xizmat qila boshladi. Mamlakatda milliy-madaniy markazlarni tashkil qilish asosida tub aholi bo‘lmagan xalqlar milliy an‘analari, madaniyatlari va boshqa o‘ziga xos jihatlarini rivojiga keng yo‘l ochib berdi.

BAYNALMILALCHILIK (arab, «baynalmilal» — millatlararo) — jahondagi turli millat va irq-larga mansub kishilarning xalqaro birdamligi; ularning bir-birlarini tushunishlari va o‘zaro ishonchining, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o‘zaro singib borishining asosi *millat* ziddi. Insoniyat tarixi turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma‘naviy aloqalar o‘rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir, mazkur munosabatlarsiz esa ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi.

XV-asr oxiridan boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat taraqqiyoti, fan va texnika sohasidagi olam-shumul ixtirolar davlatlar va xalqlar orasida beqiyos darajada kengaygan iqtisodiy va siyosiy, madaniy, ma‘rifiy hamda ma‘naviy aloqalarning jadallashuviga olib keldi. Bu baynalmilal aloqalar milliy ong va o‘z-o‘zini anglash, milliy ozodlik hamda mustaqillik g‘oyalarining shakllanishi va tarqalishiga; ilm-fan va texnika, madaniyat va ma‘rifat sohalaridagi yutuqlarning ayirboshlanishiga keng yo‘l ochib berdi.

Mustabid sho‘rolar tuzumi davrida Baynalminalchilik bir tomonlama talqin qilindi, faqat ishchilar sinfi, uning partiyalari mafkurasi va siyosatining asosiy prinsiplaridan biri, sotsializm va kommunizm uchun kurashdagi birligi, degan ma‘noda tushuntirilib, bunda «proletar internatsionalizmi»gina ko‘zda tutildi. Aslida baynalminalchilik esa umuminsoniy hodisa bo‘lib, barcha xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyot sari harakatining, mustaqillik va milliy ozodlik kurashining g‘oyat zo‘r omilidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘z ichki va tashqi siyosatida baynalminalchilik g‘oyalariga sodiq tarzda jahondagi barcha xalqlar va millatlar

bilan do'stona aloqalarni o'rnatish hamda rivojlantirish yo'lidan bormoqda. O'zbekiston Respublikasi ilg'or mamlakatlar bilan barcha sohada hamjihatlik, hamkorlik va birdamlikni barqaror etishga intilmoqda, xalqaro munosabatlarning umum tan olgan qoida va tamoyillariga rioya qilmoqda. Mamlakatda barcha fuqarolarning, ular millati va irqidan qati nazar, o'zaro ishonchi hamda birdamligini mustahkamlash, milliy-madaniy ne'matlarini o'zaro ayirboshlash yuzasidan izchil siyosat yuritilmoqda. O'zbekistonda jami 100 dan ziyod - rus, ukrain, belorus, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, tatar, qoraqalpoq, tojik, nemis, koreys va boshqa xalqlarning milliy-madaniy markazlari, respublika milliy-madaniy markazi tashkil etilgan, barcha el-elatlarning ma'naviy yuksalishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan¹⁹.

1989 yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan Qozok, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari faoliyat ko'rsata boshladi.

Vaqt o'tgani sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995 yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi. Bunday rivojlanish o'z navbatida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni taqozo qilardi. Shu maqsadda 1992 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal madaniyat Markazi tashkil qilindi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish uning asosiy vazifasi qilib belgilandi. Shu bilan bir qatorda davlat organlari va jamoat tashkilotlariga O'zbekiston xududida yashovchi milliy guruhlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga doir masalalarni o'rganishda yordam berishi lozim deb, ta'kidlanadi²⁰.

Markaz faoliyatidagi muhim yo'nalish umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda faol ishtirok etish bo'ldi. Jumladan, respublikada o'tkaziladigan an'anaviy Navro'z bayramida nafaqat mahalliy millat vakillari, balki, respublikada yashayotgan barcha millat vakillari qatnashadilar, bu bayramga chuqur hurmat bilan qaraydilar. O'z navbatida mahalliy aholi ham ruslarning

¹⁹O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, 2000, - B. 534.

²⁰Jo'raev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.433.

milliy bayrami bo‘lmish Maslennitsa rojdestvo, tatarlarning Sabanto‘y va boshqa qator xalqlarning milliy bayramlarida faol ishtirok eta boshladilar.

Bu bir jihatdan ma‘lum bir xalqning milliy bayramini, o‘ziga xos an‘ana va urf-odatlarini o‘rganishga, shu tufayli o‘z dunyoqarashlarini boyitishga yordam beradi. Ikkinchidan, o‘zaro hurmat va yaqin qardoshlik asosida umumiy xonadon —yagona vatan tuyg‘usini kuchaytiradi. Uchinchidan, mamlakatda ma‘naviy-ruhiy iqlimning barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi.

Mustaqillik yillarida Baynalmilal madaniyat Markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo‘nalishi bu 1994 yili boshlangan birinchi Xalq ijodiyoti festivali bo‘ldi. Bu festival O‘zbekiston mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va u har ikki yilda bir marta o‘tkazishga qaror qilindi.

Ayniqsa, arman, ozarbayjon, tojik, qozoq, tatar, nemis va koreys xalqlarining professional va badiiy havaskorlik san‘atkorlarining chiqishlarini xalq xursandchilik va qiziqish bilan kutib oldi. Har bir Madaniyat Markazining festivali chinakamiga milliy bayramga, o‘sha millatning tom ma‘nodagi porloq istiqbolining kafolatiga, yashab turgan zamin uning uchun begona emasligi, aksincha, u ana shu yurt, ana shu tuproq, taqdiri uchun javobgarlik hissini kuchaytirishga xizmat qildi. Milliy madaniy Markazlarning yaqunlovchi chiqishlari mustaqillik bayrami arafasida 20 avgust kuni Xalqlar Do‘stligi Saroyida va bayram kuni —birinchi sentyabrda Mustaqillik maydonida o‘tkazilgan tantanali konsertlarda namoyish qilindi²¹.

Mamlakatda millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, milliy madaniyatlar ravnaqi yo‘lidagi xizmatlarini qo‘llab-quvvatlab festival qatnashchilariga O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tabrik maktubi yo‘lladi.

O‘zbekistonda qardosh xalqlar ijodkorlari bilan uchrashuvlar, ular ijodiga bag‘ishlangan kechalar o‘tkazish odat tusiga kirdi. Keyingi yillarda O‘zbekiston kunlarining Qozog‘istonda o‘tkazilishi, Qozog‘iston kunlarining O‘zbekistonda

²¹ Jo'raev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.434.

o'tkazilishi, qozoq va o'zbek xalqi o'rtasidagi qardoshlarcha aloqaning yanada ravnaq topishiga katta hissa qo'shdi. Rus madaniyat Markazi Rossiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda S.YA.Esenin tug'ilgan kunining 100 yilligini, Qozoq madaniyat Markazi Qozog'istonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda buyuk qozoq shoiri Abay tavalludining 150 yilligini, milliy istiqlool uchun tolmas kurashchilar Turor Risqulov, Sultonbek Xojanovlarning 100 yilligini, Qirg'iz madaniyat Markazi Qirg'izistonning O'zbekistondagi elchixonasi bilan birgalikda Manas eposining 1000 yilligini keng nishonladilar.

Bu sanalar o'z navbatida o'zbek xalqining ham katta bayramiga aylandi. Milliy madaniyat markazlari, mamlakat fanlar akademiyasi va boshqa qator oliy o'quv yurtlari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

Ukraina milliy madaniy Markazi "Taqdirimiz—yagona" mavzuida davra stoli tashkil etdi. Atoqli rus shoiri S.Esenin yubileyiga bag'ishlangan kecha ishtirokchilari "O'zbekiston —umumiy uyimiz" mavzuida suhbat o'tkazdilar²².

Qozoq milliy-madaniy markazi 1989 yilda O'zbekistonda birinchilar qatorida tuzilgan edi. Qozog'iston va O'zbekiston xalqlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish uning faoliyatidagi asosiy maqsad hisoblanadi. Ikki do'st davlat boshliqlarining Toshkent va Almatidagi uchrashuvlarida barcha sohalarda, shu jumladan madaniyat sohasida ham bahamjihat xarakatlarning ham asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bunda ko'p yillik madaniy aloqalarni saqlab qolish va yanada rivojlantirish zarurligi nazarda tutildi. Ikki o'rtadagi muzokaralarda ko'pgina masalalar yuzasidan tuzilgan bitimlar, jumladan. san'at, ilm-fan, maorif sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash imkonini berdi. Milliy-madaniy markazning faoliyatiga ana shu bitiklar asos qilib olindi.

Qozoq madaniy markazi yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor bermoqda. Bu gap avvalo maorif va ta'limni ona tilida tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi. Hozir O'zbekistonda istiqomat qiluvchi qozoq bolalari uchun 600 ga yaqin o'rta ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

²² Jo'raev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlool davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.436.

Pedagogika universitetida esa qozoq madaniy markazining bevosita ishtiroki bilan qozoq filologiyasi fakulteti tashkil etilgan²³.

Qozog'iston televideniesining dasturlari Toshkent shahri va viloyati aholisiga muntazam tarzda olib ko'rsatilmoqda. O'zbekiston televideniesi va radiosi qozoq tilida ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlamoqda, "Nurli yol" gazetasi chiqarilmoqda va hokazo.

Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy pedagogika institutlarida qozoq tilida ta'lim beriladigan bo'limlar ishlab turibdi. Ko'pgina oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida qozoq yoshlari uchun kirish imtihonlari ularning ona tilida qabul qilinmoqda²⁴.

Markaz xavaskorlik jamoalari, xalq ijodiy festivallarini uyushtirib, qozoq xalqi ijodining an'anaviy va zamonaviy turlarini targ'ib qilmoqda. Markazning faollari tarixiy targ'ibot ishlarini ham o'tkazmoqdalar. Masalan, davlat arboblari S. Xo'jaev, Turor Riskulov, Saken Sayfulin va boshqalar tug'ilgan kunning 100 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda qozoq madaniy markazi bevosita ishtirok etdi.

Boshqa xalqlarning madaniy markazlarida xam qiziqarli ishlar amalga oshiriladi. Chunonchi, 1994 yilda tuzilgan rus madaniy markazi turli xilma-xil masalalarni xalq etishga harakat kilib, davlatlararo va xalqlararo munosabatlarni rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Markaz vakili O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Moskvaga qilgan tashrifi vaqtida rasmiy delegatsiya tarkibida bo'lganligi ana shundan dalolat beradi. Rossiya Federatsiyasining jamoat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish, turli madaniy tadbirlar uyushtirish, ijodiy guruxlar tuzish va shu kabilarga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistondagi Koreys madaniy markazlari uyushmasining faoliyati siahida ko'zga tashlanadi. O'tgan asrning 30-yillarida respublikamizga zo'rlab ko'chirilgan koreyslar uchun O'zbekiston ikkinchi vatan bo'lib qoldi. Ta'kidlash joizki, sobiq sovet xukmronligi davrida boshqa milliy madaniyatlar kabi koreys

²³ Murtazayeva R. O'zbekiston millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –T: "Universitet", 2007, - B. 136.

²⁴ Murtazayeva R. O'zbekiston millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –T: "Universitet", 2007, - B. 136.

madaniyati ham deyarli yo‘qolishga maxkum etilgan edi. Masalan, mahalliy koreyslarning 90%i asr oxiriga kelib, ona tilida o‘qishni va yozishni ham bilmaydigan bo‘lib qoldi. Shu bois madaniy markazlar ularga ona tilini o‘rgatish, milliy an‘analarni tiklashni o‘zsning asosiy vazifalaridan biri deb bildi. Endilikda Toshkent san‘at institutida koreys dramasi artistlari tayyorlanmoqda, Sharqshunoslik institutida esa koreys filologiyasi fakulteti ochildi.

Ana shularga asoslanib ta’kidlash mumkinki, butun mamlakatimizda ish olib borayotgan milliy-madaniy markazlar turli millat va elatlarning o‘ziga xosligini saqlab kolish sohasidagi muxim vazifani amalga oshirmoqdalar. Ular ma’naviy turmushning benazir makonlarigina bo‘lib qolmay, ayni vaqtda ijtimoiy-siyosiy va madaniy qurilishga samarali hissa qo‘shmoqdalar. Insonning ma’naviy xayotida g‘oyaviy-fuqarolik negizlarini shakllantirish mazkur markazlar faoliyatidagi asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bu vazifani onda-sonda o‘tkaziladigan tadbirlar bilan emas, kun sayin zo‘r g‘ayrat bilan qilinadigan ishlar orqali amalga oshirish mumkin. Shu boisdan ham respublika raxbariyati milliy-madaniy markazlarga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turibdi.

Milliy-madaniy markazlarning faol ishtirokchilari xukumatning yuksak mukofotlari, orden va medallari bilan taqdirlanayotganligi, ularga ko‘rsatilayotgan yuksak diqqat-e’tiborning yorqin namunasidir.

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning madaniyat markazlarini tuzish g‘oyasini shahsan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshlab berdi. Bu ish 1989 yilda boshlangan bo‘lib, endilikda ularning faoliyati gurkirab rivojlanmoqda. O‘zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi huzurida Respublikada tuzilgan millatlararo madaniyat markazi ularning faoliyatini uyushtirib va muvofiqlashtirib turadi.

1993 yilda bu markaz mustaqil Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. U milliy-madaniy markazlarning faoliyatini uyushtirib, O‘zbekistonda yashovchi milliy guruhlarining madaniy ehtiyojlarini o‘rganib, qondirish borasida davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashmoqda. Markaz vazifalari: milliy-madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam berish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, respublikada yashovchi xalqlar va milliy

guruxlarning milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlari, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishga ko'mak berish, yaqin va olis xorijdagi milliy hamda baynalmilal madaniy markazlar bilan aloqa va hamkorlik o'rnatib, rivojlantirish, millatlar va elatlarni baynalmilal ruhda jipslashtirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga yordam berishlardan iboratdir²⁵.

O'zbekistonning xozirgi ko'p millatli axolisi asosan etnogenetik jixatdan bog'lik bo'lgan ikkita katta xalqdan iborat. Ularning biri 83,1%ni tashkil etuvchi turkiyzabonlardan iborat bo'lsa, ikkinchisi 9,2%ni tashkil etuvchi rusiyzabon (slavyan)lardan iboratdir.

Ularning har biri katta umumiy lug'aviy zaxiraga, umumiy tarixiy o'tmishga egadir. Rusiyzabon aholi vakillari katta qismining ota-bobolari o'zbeklar diyorida ko'p yillardan beri yashab kelayotganliklari yuqorida qayd etib o'tildi. O'zbekiston aholisining etnik tafovutlari millatlararo hamjihatlik uchun to'siq bo'la olmaydi. O'zbekiston raxbariyati turli etnik birliklarning oz-ko'pligidan qat'i nazar, ular o'rtasida mushtaraklik ruhini saqlab qolish uchun milliy siyosatga eng maqbul tarzda yondoshish yo'llarini qo'llanmoqda. Aniq maqsadni ko'zlovchi insonparvarlik ruhidagi milliy siyosat, o'zbek bo'lmagan aholining ilg'or ijtimoiy qatlamlarini faollashtirish jarayonini rivojlantirishga, O'zbekistondagi barcha xalqlar vakillarini umumdavlat milliy-siyosiy birligi, vatanparvarlik tuyg'usi va o'z mamlakati uchun faxrlanish ruhida tarbiyalashga ko'maklashib kelmoqda.

Shuningdek, turli millatga mansub ijodkorlar asarlarining ko'rgazmalarini tashkil qilishga katta e'tibor berildi. Masalan, 1994 yil mart-aprel oylarida Toshkentda "Bir daraxtning shohlari" mavzuida ana shunday ko'rgazma tashkil qilindi. Unda mamlakatda istiqomat qiluvchi 11 millatga mansub 58 ijodkorning 98 ta tasviriy san'at asari namoyish qilindi. Shu yilning may oyida esa Ukraina, O'zbekiston, Belorussiya xalq amaliy san'ati namoyandalari asarlarining ko'rgazmasi uyushtirildi. Xususan O'zbekistonlik mo'yqalam ustalari: I.Xaydarov, A.G. Jiboldov, K.Gulenko, S.P. Mansurov, Kovrienko va boshqalarning asarlari keng tomoshabinlar ommasida katta taassurot qoldirdi. Bu

²⁵ Jo'raev N. O'zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.439.

ko'rgazmalar kishilarni hozirgi zamon amaliy va tasviriyl san'at namunalari bilan tanishtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan "Turkiston — umumiy uyimiz" mavzuidagi kechalar, uchrashuvlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni kuchaytirishda katta rol o'ynamoqda. Masalan, ana shunday shior ostida 1995 yil avgustda mamlakat "Baynalmilal madaniyat" Markazining respublika, Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari, "Tinchlik va barqarorlik" hamda shahar, Mahalla xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikda o'tkazgan do'stlik kechasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 2003 yil kuzida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat arboblari Assambleyasining Toshkentda to'planishi ham bu borada qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Xullas, bugungi kunda O'zbekistonda 80 dan oshiq, milliy-madaniy Markazlar xalqlar o'rtasidagi chinakam inoqlikni tarbiyalashda katta rol o'ynab, ularning xalqlar o'rtasida obro'-e'tibori tobora osha bordi. Ularning faoliyatiga yuksak baho berar ekan davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi milliy madaniy Markazlari birinchi festivali faollariga va barcha qatnashchilariga yuborgan tabrigida shunday degan edi:

«Aziz dustlar!

Muxtaram Vatandoshlar!

Bugun mamlakatimiz xalqlari ulkan shodiyona arafasida turishibdi. O'zbekiston mustaqilligining o'n yilligi har bir fuqaro qalbida faxr va iftixor tuygularini jo'sh urdirmoqda. Buni Sizlar yil mobaynida o'tkazgan tadbirlaringiz va bugungi yakunlovchi tantanalaringiz misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Ko'p millatli mamlakatda har bir millat va elat ravnaqini ta'minlash, milliy an'analar, urf-odatlar va madaniyatlarni rivojlantirish, demokratik xuquqiy davlatning bebaho fazilatlaridir. Biz ana shunday yuksak sivilizatsiyami jamiyat qurish sari borayotgan bir paytimizda Sizlarning bugungidek hamjihatligingizni yuksak qadrlayman.

Sizlarning mamlakatimiz kelajagiga katta umid bilan qarayotganingiz, o'z milliy madaniyatimiz ravnaqi butun O'zbekiston taraqqiyotining bir qismi ekanligini chuqur tushunib turganingiz quvonchli hodisa.

O‘zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati ayni paytda u buyuk orzu-umidlar, yakdillik, hamjihatlik birodarlik mamlakati. Turli mamlakat vakillarining eng ezgu niyatlarini mushtarak etgan, shonli tarixga va buyuk kelajakka ega bo‘lgan ulugvor xonadon.

Sizlar esa o‘z faoliyatingiz, amaliy ishlaringiz bilan ana shu xonadonni yana ham nurafshon, yana ham fayzli qilasizlar».

Islom KARIMOV,

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti.

Toshkent. 1994 yil 20 avgust²⁶.

O‘zbekiston Respublikasi davlat delegatsiyasi Germaniya, Rossiya, Koreya va Markaziy Osiyo mamlakatlariga rasmiy tashrif buyurganda, tegishli milliy-madaniy markazlar raislari shu hukumat delegatsiyasi tarkibida bordilar. Bu ham mamlakatimizda milliy va millatlararo munosabatlar davlat nazoratida ekanligini, unga doimiy ravishda g‘amxo‘rlik va alohida e‘tibor berilayotganini ko‘rsatadi. Qolaversa, bu har ikki davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarning yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Mamlakat Baynalmilal madaniyati Markazi 1995 yil 10—11 mart kunlari Toshkent shahar hokimiyati hamda Ma‘naviyat va ma‘rifat Markazi bilan hamkorlikda Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazdi. Ushbu konferensiya tavsiyalari keyingi yillarda millatlararo totuvlikni rivojlantirishga doir ishlarni yanada takomillashtirishga, uni yangidan-yangi tajribalar va ilmiy-nazariy xulosalar bilan boyitishga yordam berdi.

O‘zbekiston “Xalq birligi” harakati va “Beynalmilal madaniyat” Markazi 1996 yil “O‘zbekiston millatlararo hamjihatlik yo‘lida” nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabatlarning jamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tutgan o‘rni va roli, milliy madaniyatlar ravnaqi va mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

²⁶ Jo'raev N. O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. — T.: Sharq, 2011.-B.440.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tillarida o'qishi, ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ular kerakli miqdorda o'quv qurollari va darsliklar bilan ta'minlanadi.

Ayni paytda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 120 dan ortiq millat va elatlarning farzandlari o'g'il-qizlari mamlakatimiz o'quv yurtlarida bimalol ta'lim olmoqdalar. Yoshlar oliy o'quv yurtlarida va maktablarda 8 tilda ta'lim olmoqdalar. Ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilmoqda. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar olib borilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda mamlakatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan keng miqyosli tadbirlar bugungi kunda respublikada hukm surayotgan ijtimoiy va siyosiy barkarorlikning muhim omili bo'lmoqda.

Mustaqil O'zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. 1991 yil 14 iyulda O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solinda. 1998 yil 1 mayda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

1992 yil 27 mart O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. O'zbekiston Prezidentining 1990 yil 2 iyundagi «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to'g'risida»gi farmoniga binoan O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. «Islom nuri» gazetasi chiqmoqda. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm – rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident Islom Karimovning 1992 yil 7 martdagi farmoni bilan Islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom – tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba – yoshlar ta'lim olmoqdalar.

Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999 yil 7 aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

2007 yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi – ISESSO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida Islom madaniyatining 2007 yildagi poytaxti deb e'lon qilindi²⁷.

2007 yil 14 – 15 avgust – Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining 2007 yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan «O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi.

DINIY TASHKILOT - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zi-ni boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning *vijdon erkinligini* kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi. Diniy tashkilotlarning ta'limoti, tarixiy an'analari, diniy uyushmalar tuzilishida tutgan o'rni va roli turli-tuman bo'lishi mumkin. Fuqaroning Diniy tashkilotga a'zoligi uning huquqiy maqomini, jumladan boshqa shaxslar bilan tengligini cheklab qo'ya olmaydi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi - ularning o'z-o'zini boshqarishidir, ya'ni, ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan. Diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa,

²⁷ Shamsutdinov R.T., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining notarix yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) T.: "Sharq", 2013.- B.546.

davlat ularning ichki aqidaviy ishlariga aralashmaydi. Ular o'z ustav (nizom)lariga muvofiq tashkil topish va ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga egadirlar. Diniy tashkilotlarning ustavlari ularning tuzilishi, diniy ta'lim va faoliyatning boshqa masalalarini belgilab beradi. Ba'zi Diniy tashkilotlar ierarxiya tizimida tashkil topgan. Masalan, *O'zbekiston musulmonlari idorasi*, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, masjidlar, cherkovlar, o'quv yurtlari, mahalliy tashkilotlar va o'z boshqaruv organlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (1998) qonunida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va b.) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi. Tegishli ustav (nizom) asosida faoliyat yurituvchi respublika diniy uyushmalari O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Viloyat, tuman va shahar, shaharcha va qishloq hududida bo'lgan diniy tashkilotlar tegishli viloyatlar, shuningdek, Toshkent shahar hokimligi adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi. Diniy tashkilot ro'yxatga olingandan so'ng u yuridik shaxsga aylanadi. Diniy tashkilot yuridik shaxs sifatida qonunlarga va o'z nizomiga muvofiq holda huquqlardan foydalanadi hamda majburiyatlarni o'taydi. Diniy tashkilotraxbarining tashkilot ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi. Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Diniy tashkilotlar faoliyati ikki holda: ular o'z nizomlariga muvofiq tugatilganda va «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun qoidalarini yoki boshqa qonun hujjatlariga rioya qilinmaganda to'xtatiladi. Diniy tashkilot faoliyatini to'xtatish haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligining adliya boshqarmalari tomonidan qabul qilinadi. Diniy tashkilotlar qabul qilingan qaror ustidan xalq sudiga shikoyat qilish huquqiga ega, shikoyat fuqarolik ishlarini yurituvchi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Diniy tashkilotlar tasarrufida binolar (masjidlar,

cherkovlar, sinagogalar, kirxalar, monastirlar, ibodatxonalar va b. inshootlar), korxonalar (bosma-xonalar, fermalar, badiiy-tikuv sexlari va h.k.), ijtimoiy va xayriya ob'ektlari (etimxonalar, qariyalar uy-lari va h.k.), diniy anjomlar (diniy kitoblar, ikonalar, shamlar va h.k.), ular faoliyatini ta'minlash uchun zarur transport vositalari, pul va b. mulklar bo'lishi mumkin. Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqi qonun tomonidan himoya qilinadi²⁸.

Bugungi kunda respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonolari va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi²⁹.

Agar biz bosib o'tilgan istiqloq yo'limizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, ozodlikning ilk onlaridan boshlaboq dinga munosabat, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri yo'lga qo'yishga alohida e'tibor karatildi. Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston dunyoviy davlat, binobarin, mamlakatimizda din davlatdan ajratilgan. Ammo respublikamiz rahbariyati bu masalaga oqilona yondashib, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajratilmaganini, xususan, O'zbekiston singari qadimiy va barqaror diniy an'analarga ega mamlakatda bu borada keng nazokat va ehtiyoqkorlik bilan ish yuritish lozimligini o'z vaqtida to'g'ri anglab etdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident I.A.Karimovning davlat arbobi sifatidagi yana bir xususiyati shundaki, u voqealar mohiyatini juda chuqur biladi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini oldindan payqab, eng muhimi, odamlar ruhiyatini, ularning quvonch va tashvishlari, maqsad va intilishlarini o'z vaqtida anglay oladi va xolis baho beradi.

Shuning uchun xam bugun ko'p millatli mamlakatimizda xech qaysi din vakillarining diniy nafsoniyatlarini kamsitmagan holda, ayni vaqtda diniy

²⁸ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild, 2003, - B. 123.

²⁹ Shamsutdinov R.T., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlarining notarix yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma) T.: "Sharq", 2013.- B.547.

xissiyotlarni avj ham oldirmasdan, og‘ir-vazmin, uzoqni ko‘zlangan siyosat amalga oshirilmoqda.

Bu siyosat mohiyati ilk marta Prezidentning quyidagi fikrlarida aniq-ravshan belgilab berilgan edi: “Din odamzotni xech qachon yomon yo‘lga boshlamaydi. Bu dunyoning o‘tkinchi ekanini ta’kidlab, odam bolasini hushyor bo‘lishga, yaxshi bo‘lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin xam barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz, diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta’limga doimo jiddiy e’tibor beriladi. Ayni zamonda biz din peshvolariga, o‘zimizga o‘xshagan musulmon birodarlarimizga bir narsani takror va takror uqtirmoqchimiz: din o‘z yuli bilan, davlat o‘z yo‘li bilan. Diniy partiyalar tuzib, hokimiyat talashib yurishlar xudoga ham yoqmaydi. Islom dini insonlarni kamtarlikka, kamsuqumlikka undaydi. Musulmon farzandi kechirimli bo‘ladi. Musulmon farzandi birovni kofir, birovni xudojuy deb toifalarga ajratmaydi. Sababi, bandasining ustidan bandasi emas, xudoning o‘zi hukm chiqaradi. Shunday ekan, bir-birimizni bexuda ayblab. men musulmon deb talashib yurishlar bizga to‘g‘ri kelmaydi.

Hamma ahil, hamma pokiza bo‘lib yashasin, kimning fazilati qancha, kimning gunohi qancha ekanini yaratganning o‘zi ajrim kilib beradi”.

Qachonki kishi o‘zligini anglamasa, o‘z vijdoni bilan yuzma-yuz turmasa, iymon va e’tiqod oldida hisob bermasa, qo‘shnisi, mahallasi, jamiyat, Vatan oldidagi mas’uliyatini his etmasa, bunday odam insonlik sharafiga munosib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezident I.A.Karimov siyosiy vaziyat nihoyatda qaltis va nozik bir paytda yuqorida eslatilganidek otashin nutq va ma’ruzalari bilan odamlarning nozik tuyg‘ulariga ta’sir etdi, ularni uzoq, yillik karaxtlik va g‘aflatdan uyg‘otdi, fikrlashga, o‘z taqdiri va farzandlari istiqboli haqida qayg‘urishga da’vat etdi. Bu bilan u, birinchidan, mamlakat aholisini ruhiy-ma’naviy ‘oklanishiga imkon yaratdi. Ikkinchidan, mamlakatdagi tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikka o‘ziga xos zamin yaratdi³⁰.

³⁰ Jo‘raev N. O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlool davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.445.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident I.A.Karimovning ma'naviy va ruhiy poklanish, yuksak insoniy barkamollik sohasida amalga oshirayotgan ishlarning miqyosi faqat shular bilan cheklanmaydi. U mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakat aholisi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, islom dini ravnaqiga qanchalik keng yo'l ochib bergan bo'lsa, sovetlar tuzumi davrida yurtimizning xorijiy islom mamlakatlari bilan butunlay uzilib qolgan aloqalarini butunlay yangitdan tashkil etdi. Bu aloqalar o'zaro iqtisodiy va madaniy munosabatlarni chuqurlashtirish asosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, dini va dili bir-biriga yaqin bo'lgan xalqlar o'rtasida manfaatli hamkorlikni ta'minlashga xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident I.A.Karimovning Turkiya, Eron, Malayziya, Indoneziya, Pokiston, Misr singari mamlakatlarda bo'lishi O'zbekiston musulmonlari hayotida o'chmas iz qoldirdi. Albatta, bular bugungi kun o'lchovi bilan qaraganda, tabiiy bir jarayonga o'xshaydi. Biroq, har bir xodisani o'z vaqtida baholasak, u ro'y bergan yo amalga oshirilgan vaziyat va sharoitni chuqur tahlil etsak, mazkur safarlarning naqadar katta tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy voqea bo'lganini anglash mumkin.

Din xalq, ma'naviyatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tutishimiz kerak. Ko'p millatli mamlakatda dinga munosabatning o'ziga-xos tomonlari bor. Aholining turli tabaqalarini umumiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etish, diniy mahdudlik va aqidaparastlikni avj oldirmaslik, jamiyat a'zolari o'rtasida yagona zamin, yagona makon taqdiriga javobgarlik hissini kuchaytirish kabi vazifalar siyosiy arbobdan g'oyat mas'uliyat va mulohaza bilan ish yuritishni talab qiladi. Jumladan, millatlararo munosabatlarni barqaror saqlash va rivojlantirishda din omili muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, baptistlar, yahudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, bahoichilar, krishnantlar, buddistlar, pyatidesyatniklar, Iegova xudosi shohidlari, yangi havvoriylar, xristian—nresvitorianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, tartib-qoidalari, muayyan diniy qavmning hayot tarzi va dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent va O‘rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimirning Svyato-Uspenskiy kafedral sobori qoshida diniy-ma’muriy markaz tashkil etish va 1996 yil noyabr oyida Eparxiyaning 125 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi murojaatini qo‘llab-quvvatladi va bu haqda alohida qaror qabul qildi. Qarorda Toshkent shahridagi Svyato-Uspenskiy sobori xududini kengaytirish uchun ikki gektar yer ajratish, byudjet mablag‘i hisobiga uni obodonlashtirish ko‘zda tutilgan.

1995 yili O‘zbekiston evangel-lyutteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Bir osmon ostida” shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan muloqat katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000 yilning sentyabrida YUNESKO rahnamoligida “Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo‘lida” mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o‘ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Anjumanni o‘tkazish uchun aynan O‘zbekiston tanlangani bejiz emas. Zero, bu o‘lkadan dunyoga dong‘i ketgan buyuk allomalar Islom olamida katta hurmatga ega bo‘lgan buyuk zotlar etishib chiqqan. Hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. AQSH sobiq davlat sekretari Madlen Olbrayt 2000 yil aprelda Toshkent Sinagogida ibodat qilgandan keyin: O‘zbekistonda yana takror aytaman, O‘zbekistonda barcha dinlarga bir xil e’tibor berayotgani vijdon erkinligi to‘la ta’minlanganligi meni juda quvontirdi. Bu jihatdan O‘zbekistonni butun dunyoga ibrat qilib ko‘rsatsa arziydi, degan edi³¹.

130 ga yaqin millat va elat istiqomat qilayotgan, aholisining ruhiy va ma’naviy ehtiyojlari rang-barang bo‘lgan O‘zbekistonday mamlakatda tili, millati, irqi, dini, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, insonni ulug‘lash davlat siyosatining bosh yo‘nalishidir.

³¹ Jo‘raev N. O‘zbekiston tarixi: (Milliy istiqlool davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.447.

2.3 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash istiqbollari

Bugun respublika hududida yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari uchun O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi millatlararo totuvlikni mustahkamlash, barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga alohida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi e‘tibor qaratilgan. Davlat dasturining beshinchi yo‘nalishi – xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, vazmin, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat yuritish. Xususan, xorijda yashayotgan va ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan hamkorlik qilish bo‘yicha davlat siyosati konse‘siyasi ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Ekstremistik g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, bunday fuqarolarni sog‘lom muhitga qaytarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Diniy ma‘rifat tizimi qayta ko‘rib chiqilib, bu borada aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan ishlar samaradorligi va ta‘sirchanligi kuchaytiriladi. Muxtasar aytganda, Davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga 13,5 trillion so‘m va 1,3 milliard AQSh dollari yo‘naltiriladi. Davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, aholi farovonligini amalda yuksaltirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do‘stlik jamiyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo‘ladi.

Puxta-pishiq bayon etilgan bu vazifalarning bari bir-biriga bog‘liq, biri ikkinchisini talab etadigan, davlat va xalq uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega yo‘nalishlar hisoblanadi. Endi Harakatlar strategiyasida belgilangan ana shu beshinchi ustuvor yo‘nalish bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori 2-bandida belgilangan vazifalardan birining mazmun-mohiyatini o‘zaro solishtiraylik: “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish orqali davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, qo‘shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, balki hamkorlik qilish, mintaqamizdagi muammolarni birgalikda hal etish tamoyiliga asosan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning mazmun-mohiyatini ochib berish”.

Bu yerdagi eng muhim yangilik shundan iboratki, mamlakatimiz bundan buyon qo‘shnilarimiz bilan raqobatlashish emas, balki, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish, yashab turgan mintaqamiz bo‘lmish Markaziy Osiyo muammolarini birgalikda hal etish yo‘lini tanladi. Bu – juda muhim. Bundan oqilonaroq yo‘l yo‘q. Mustaqillik tarixiga Harakatlar strategiyasining aynan ana shu beshinchi ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha nimalar qilinganini aniqlashtirish asosida yondashsak, mamlakatimizda bu borada misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishganimiz oydinlashadi. Mustaqillikning ilk daqiqasidan e‘tiboran O‘zbekiston Respublikasi siyosatida millatlararo tenglik va totuvlik g‘oyasiga alohida e‘tibor qaratildi. Ko‘p

o'tmay bu umuminsoniy tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida qat'iy qilib qayd etildi. "Muqaddima"sidayoq Asosiy Qonunimiz "respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib", "fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida" qabul qilinayotgani aytilgan. 8-moddada: "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", – deyiladi.

Demak, tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zaro ma'nodosh (sinonim) hisoblansada, Konstitutsiya qabul qilgan kundan e'tiboran o'zbek siyosatshunosligi huquqiy terminologiyasida "xalq" va "millat" so'zlari o'zaro ma'nodosh bo'lmay qoldi. Chunki Konstitutsiyada "xalq" deganda mamlakatning butun aholisi, "millat" deganda esa bu yerda yashaydigan 136 millatdan biri tushuniladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ularning bari – shu yurt farzandi, vatandoshimiz, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi. Migratsiyaviy jarayonlar uchun biron-bir fuqaroning zarracha aybi yo'q. 1989 yil 21 oktyabrida qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi qonun amalda respublikamizdagi boshqa tillar ravnaqi uchun ham keng yo'l ochdi. Hozir mamlakatimizda 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida umumiy ta'lim maktablari mavjud. Aslida, iqtisodiy jihatdan muayyan mushkulliklar tug'dirsa ham, shu maktablar uchun darslik va qo'llanmalar mamlakatimizning o'zida tayyorlanib, chop etiladi.

O'zbek maktablarida ona tili, rus tili va bir xorijiy (jami uch) til, rus maktablarida ona tili, davlat tili va bir xorijiy (jami uch) til, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman maktablarida esa ona tili, davlat tili, rus tili va bir xorijiy (jami to'rt) til o'qitiladi. Til o'rganish amalda kishining ong-tafakkurini o'stiradi, uning axborot olish imkoniyatini kengaytiradi, fikrlashda qiyoslash ko'nikmalarini paydo qiladi, shakllantiradi. Mamlakatimizda o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq va ingliz tillarida matbuot nashrlari mavjud. Mustaqillik yillarida amalda har bir millat va elat vakilining o'z tilida badiiy ijod qilish imkoniyatlari ham kengaydi. Masalan, sho'ro davrining so'nggi o'ttiz-qirq yili mobaynida Toshkentda tojik tilida birgina kitob chop etilgan. Ammo istiqlool zamonida Toshkent, Samarqand,

Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda o'zbekistonlik tojik shoirlarining 100 dan oshiq to'plami bosilib chiqdi. Ularning aksariyatida Vatan haqida she'rlar bor. Ularning barida "Vatan" deganda jonajon O'zbekistonimiz, uning vodiylari, shaharlar, qishloqlari, cho'l tog'lari, dalay bog'lari ta'rif tavsif etiladi. Tojik yozuvchilarining ko'plab nasriy asarlari ham bosilyapti.

Bugun mamlakatimizdagi boshqa millat va elatlar vakillari uchun ham osh – eng taniqli taom bo'lib ulgurgan. To'y-ma'rakalarimizni usiz tasavvur etolmaymiz. To'y-tantalarimizda turli millat va elat vakillari bimalol xorazmcha "Lazgi"ga, buxorocha "Mavrigi"ga yoki "Andijon polkasi"ga zavq bilan raqsga tushadi. Turli millat va elatlar vakillari bir mahalla, bir ko'p qavatli uyda yon qo'shni – jon qo'shni bo'lib yashab kelyapti. O'rtada "bor tovg'im – kel tovg'im" ham mavjud. Bugungi o'zbek madaniyatini, sharqona va g'arbona madaniyatlar uyg'unligidan (sintezidan) iborat, deb hisoblashga to'la haqlimiz. G'arb madaniyatining ijobiy jihatlari o'zlashtirish – faqat yutuq. Ammo G'arbda demokratiyaning suiste'mol qilinishi oqibatida yuzaga kelgan "ommaviy madaniyat"ning, yalang'ochlik falsafasining kirib kelishidan ehtiyot bo'lish kerak.

Shu yilning 24 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan madaniy markazlarning bir guruh faollari mukofotlandi. Davlatimiz rahbari Vatanimizning yuksak mukofotlarini tantanali ravishda to'shirdi. Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

19 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, Respublika baynalmilal madaniyat markazi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markaz, shuningdek, O'zbekiston xorijiy

mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, 34 ta do'stlik jamiyati faoliyati o'zaro birlashtirildi. Shu tariqa bu qo'mita millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi boshqaruv organi maqomiga ega bo'ldi. Mamlakat taraqqiyoti bugun bevosita 32 milliondan ortiq kishining a'moliga – sa'y-harakatiga bog'liq. Shunday ekan, O'zbekistonimizdagi barcha millatlar vakillari – hamyurtlarimiz, jondosh-qondoshlarimiz. Shuning uchun, millatimizdan qat'i nazar, shu Vatan taqdiriga barchamiz birdek mas'ulmiz. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov alohida shior tarzida o'rta tashlaganidek: "Shu aziz Vatan – barchamizniki!"

Xullas, Harakatlar strategiyasi asosida beshinchi ustuvor yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami har qanday kishini mamnun etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 15 avgustda qabul qilingan "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoyishida muayyan ma'noda hozirgacha amalga oshirilgan ishlar bir sidra sarhisob ham qilindi. Bugungi kunda Harakatlar strategiyasining ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 15 ta qonun hamda 700 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani qayd etildi, shuningdek, besh ustuvor yo'nalish bo'yicha qilingan ishlar qisqacha sanab o'tildi. Ertangi istiqbolni belgilash uchun, tabiiyki, kecha va bugunning tajribalariga suyanish, ya'ni erishilgan yutuqlarni yanada ko'aytirish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni esa so'zsiz tuzatish tadorigini ko'rish kerak. Mazkur Farmoyishda ana shu qoidaga amal qilingan. Unda qayd etilishicha: "...Navbatdagi islohotlarni sifatli va oldindan rejalashtirish uchun 2017 yil yakunlari bo'yicha erishilgan natijalarni chuqur o'rganish va puxta tahlil qilish zarur".

Biz bundan keyin shu yo'ldan boramiz. Chunki navbatdagi g'ishtni oldingi g'isht ustiga qo'yish kerak. Tarixan olganda, bir davlatning davlat, bir

mamlakatning mamlakat, bir xalqning xalq bo'lib shakllanishi oson kechadigan jarayon emas. O'zbekiston Respublikasi – shu hududda tarixan shakllangan, dunyoda o'z o'rnini to'ishga erishgan tamoman yangi davlat. Biz milliy davlat qurdik. Turli millat va elatlardan iborat aholi bir siyosiy birlik – O'zbekiston Respublikasi xalqi sifatida shakllandi. Mamlakatning manfaati har birimizning manfaatimiz, xalqning yutug'i har birimizning yutug'imiz, hammaga yaxshi bo'lsa, albatta, menga ham yaxshi bo'ladi, ko'pga bersin, ko'p qatori menga ham bersin, degan tushuncha va qarashlarning odamlar qalbi va ong-tafakkuridan mustahkam o'rin olishiga birdaniga erishib bo'lmaydi. Bizdagi ahillik, tilibirlik, tinchlik-xotirjamlik ruhini mamlakatimizga turli sabablar bilan tashrif buyurayotgan xorijliklar ham sezadi, bu ularni ham xushnud etadi, albatta.

O'n yillar muqaddam bir kechasi Samarqanddan Toshkentga taksida kelindi. Sheriklarimizdan biri turkiyalik savdogar yigit ekan. Mahmaddonagina deng. Hech kimga ga' bermay keldi o'ziyam.

– Men, –dedi u, – o'z mamlakatimda yarim kechasi begona mashinada bir shahardan ikkinchisiga bormayman. Ayniqsa, hozir, mana cho'ntagimda Amerika puli ham, Yevropa puli ham, Turkiya puli ham, O'zbekiston puli ham bor. Bu yerda menga hech kim tegmasligini bilaman. Mamlakatlaringizdagi bu tinchlik-osoyishtalikning, bu og'izbirlikning qadriga yetinglar...

Mamlakatimizda shu tariqa davlat va xalq o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni kuchaytirish davri boshlandi. Bundan buyon ham taraqqiyotimiz aynan ana shu davlat va xalqning ji'sligiga tayanadi. Busiz hech bir mamlakat o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishgan emas. Mustaqillikni mustahkamlash, uni himoya qilish hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, chegaralarimiz daxlsizligini asrash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini kuchaytirish, jahon miqyosida raqobat, qarama-qarshilik tobora beshafqat tus olayotgan, radikalizm, terrorizm, ekstremizm, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayib borayotgan tahlikali zamonda doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash, safarbarligimizni yanada oshirish

– bugun hayotning o‘zi talab qilayotgan eng muhim va dolzarb vazifamiz ekanini hammamiz teran anglashimiz darkor.

Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini tahminlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subhekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

II – bob yuzasidan xulosa

Yoshlar tarbiyasida ma'naviy havfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasi haqida ga'irganimizda shuni aytish joizki tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo'lmish milliy ma'naviy havfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, totuvlik, tolerantlik, millat'arvarlik va vatan'arvarlik tuyg'ularini oshirish masalalariga alohida to'xtalish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham Yurtboshimiz millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasiga juda ham e'tibor bilan qarash kerakligini ta'kidlab o'tdilar. Bu borada ma'naviy tarbiya olib borishni turli usul va vositalaridan keng foydalanish lozim bo'ladi. Yoshlarga g'oyaviy ta'sir etish vositalari orqali quyidagi vazifalarga keng e'tibor qaratish lozim:

1. Yurtimiz fuqarolariga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasini, sodir bo'layotgan mafkuraviy taxdidlarni va undan ko'zlangan maqsadlarni tushuntirish.
2. Yurtimiz fuqarolariga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelganligini, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan tushuntirish.
3. Tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatan'arvarlik tuyg'ularini mustahkamlash. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis xayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'ururning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

III-BOB. Mavzuga doir tajriba-sinov ishlari: tahlil va xulosalar

3.1 Ta'lim muassasalarida mavzu doirasida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

Hozirgi globallashuv sharoitida shiddat bilan ro'y berayotgan hozirgi o'zgarishlarmillatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasiga muhim vazifa sifatida e'tibor qaratish lozim. Albatta, bugun elatlar va millatlar orasiga sovuqchilik solishga urinayotgan razilllar yetarlicha topiladi. Har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saqlashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Yosh avlodimiz ma'naviy olami, mafkuraviy immunitetining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib, suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol bugun barchamizni o'ylantirishi tabiiy.

Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan milliy-ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

“Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi”³².

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi. Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning

³² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch 116-b

manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog‘liq misollarda ko‘rish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatda xalqimizning ma’naviy olamini bunday taxdidlardan asrash, hozirgi o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish ijtimoiy fanlarning eng dolzarb vazifasidir.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimizga, fuqarolarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda, ularga tushunarli qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishga e’tibor berish zarur.

Jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, millatlar orasidagi munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o‘z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni, dinlar o'rtasidagi va millatlararo totuvlikni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Bunday keng ko'lamli va o'ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari kafedra o'qituvchilari tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalarni kutishga to'la haqlidir.

3.2 Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari mavzusi doirasidagi tajriba-sinov ishlari natijalarining statistik tahlili va xulosalar

Milliy ma'naviyatimizni, madaniyatimizni asrlar davomida shakllanib kelgan boy va qadimiy urf – odat va an'analarimiz, qadriyatlarimizni tiklash va yanada rivojlantirish, shular asosida yoshlarimizni tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish, ilm fanga qiziqish va intilishni rag'batlantirish ajdodlarimizning bizga qoldirgan asarlari katta ahamiyatga egadir. Negaki yuksak darajada rivojlangan mamlakat yoki davlatni qurish uchun talaba yoshlarning bilimi chuqur, dunyoqarashi keng, tafakkuri sog'lom bo'lishi kerak. Bunday yoshlar inson faqat yeb-ichish, boylik orttirish uchun emas, balki xalqi, millati, davlati uchun mehnat qilishi, ijtimoiy muhitni, jamiyatini ravnaq toptirish kishilarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida bu dunyoda yashayotganliklarini chuqur his qilishlariga erishishimiz lozim deb o'ylaymiz.

Shunday ekan ta'lim-tarbiya tizimida quyidagi vazifalarga keng e'tibor qaratish lozim:

1. Yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasini va undan ko'zlangan maqsadlarni tushuntirish.
2. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va ayni damda salbiy oqibatlarini anglab yetishlariga erishish.
3. Yoshlarga mafkuraviy bo'shliq, ma'naviy tarbiya, ma'naviy tahdid tushunchalarini keng yoritib berish.
4. Yoshlarga millatlararo totuvlik va tolerantlik tushunchalarini, ularning mohiyatini tushuntirish.
5. Ma'naviy tahdid, mafkuraviy tahdid, ularning ko'rinishlarini taxlil etib berish
6. Yoshlarga mafkuraviy bo'shliq, ma'naviy tarbiya, ma'naviy tahdid tushunchalarini keng yoritib berish.

Bugungi yoshlarimizda bunday ma'naviy hislatlarni, milliy tarbiyani shakllantirishda bo'sh vaqtning roli juda kattadir.

Bo'sh vaqtning muhim xususiyati shundaki, uning zaminida talaba yoshlarning ma'naviyati shakllanib boradi. To'g'ri tashkil etilgan bo'sh vaqt jarayonida talaba yoshlarning ma'naviyatini qanday o'sishini bilish uchun biz talaba yoshlarning axborotlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarini: ya'ni badiiy kitob, gazeta-jurnallar o'qish, kinofilmlar, teleko'rsatuvlar, teatr tomoshalarini ko'rish, muzey va ko'rgazmalarga borishi kabi ma'naviy harakatlarini o'rgandik. Umumta'lim maktablarimizda o'quvchilarning bo'sh vaqtini qattiq nazorat qilish maktab-oila-mahalla hamkorligida amalga oshirilib borilmoqda. Lekin bu ishning davomi uzluksizligi va uzviyligi masalasi barchamizni qiziqтира kerak albatta!

Ma'lumki, o'rta maxsus kasb - hunar hamda oliy ta'lim muassasalarining I-II-kurs talabalari o'spirinlar hisoblanib balog'atga yetgan yoshdadir. Ularning ko'pchiligi uchun maktabdagi tarbiyachilarning muntazam, tashkiliy va maqsadga muvofiq ta'sir etish davri tugaydi va hayot maktabi boshlanadi. Bu davr o'z-o'zini

tarbiyalashni kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, faol hayotiy pozitsiyani belgilash davridir.

Bu davrda talaba – yoshlarning hayotga va o'qishga munosabatida keskin o'zgarish ro'y beradi. Ular endi o'zlarining hozirgi hayoti va faoliyatiga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Chunki yigit-qizlar hayotining ma'nosi, hayot yo'lini tanlash, turli kasblarni ahloqiy baholash haqidagi murakkab hayotiy-axloqiy masalalarni muhokama qilishga moyil bo'ladi.

I-II-kurs talabalariga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri ularning o'z madaniy- ma'naviy darajasini oshirishga bo'lgan intilishlaridir. Talabalarning yoshi ulg'ayib, onglilik, mustaqillik darajasi ortgan sari u mustaqil izlanish yo'liga tushadi. Bu yoshdagi talaba – yoshlarning qiziqish doirasi keng va xilma-xil bo'ladi. Chunki bu davr ma'naviy kamolatining, shuningdek, ulardagi qiziqish va ehtiyojlarning tez sur'atlar bilan o'sish davridir. Talabalarda ma'naviyat, xulq-atvor normalari dars vaqtida ham, darsdan keyin ham tarkib topib boradi.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida tajriba sinov ishlarining tizimini tashkil qilish va uning xaqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik. Tajriba sinov ishlarini amalga oshirish uchun 2019-2020-yillar mobaynida Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 283-umum ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilari bilan tadqiqoti ishlari o'tkazildi. Tadqiqot ishlarini olib borishda 8 B-8 G sinflari mos ravishda tajriba va nazorat sinflariga ajratildi. Bularda nazorat sinfi 8b, tajriba sinfga 8g sinf o'quvchilari ajratildi. Shundan 30 ta o'quvchi nazorat sinfiga, 30 ta o'quvchi tajriba sinflariga jalp qilindi. Tajriba sinov ishlarida jami 60 ta o'quvchi ishtirok etdi. Huddi shunday 9-sinflar o'rtasida ham o'tkazildi.

1.Tajriba sinov va nazorat maydonlari tarkibi

№	Maktab	Tajriba sinfi	O'quvchilar soni	Nazorat Sinfi	O'quvchilar soni	O'quvchilar ning

						umumiy soni
1	283-maktab	8 g-sinfi	30	8 b -sinfi	30	60
2	283-maktab	9 a-sinfi	30	9 v -sinfi	30	60

3.1-jadval

Tajriba sinflarida dars taklif etilayotgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash, rivojlantirish asosida, nazorat sinflarida esa, an'anaviy uslubda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi yuqorida, o'quvchilar milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanini o'zlashtirishda yo'l qo'yayotgan hato va kamchiliklarni ular oldidagi muammolarni o'rganish jarayoniga asoslanadi. Tajriba sinov ishlarini quyidagi tartibda dasturi ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov dasturi

1. Umumta'lim maktablarida "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" faning umumiy xajmini aniqlash va fanning o'qitilish jarayonini o'rganish va tahlil qilish.

2. Har bir sinflarda "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanning o'qitilish jarayonlarini kuzatish, o'quvchilarning fanga oid nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash.

3. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani yuzasidan o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan tajriba sinov va dars ishlanmalarini tayyorlash.

4. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani mashg'ulotlarini tashkil etishda:

A) interaktiv;

B) innovatsion;

C) axborot texnologiyalari;

D) tabaqalashtirib o'qitish;

E) didaktik o'yinli o'qitish;

J) muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish.

5. Har bir metod bo'yicha olingan natijalarni aniqlash va taqqoslash.

6. Olingan nazariy va amaliy bilimlar natijalarini o'rganish va taqqoslash, o'quvchilar bilim va ko'nikmalarida o'zgarish darajasini qayd qilish.

7. Olingan ilmiy natijalarni kafedra yig'ilishida, fakultet yig'ilishida, ilmiy konfrensiyalarga olib chiqish va ular asosida tavsiyalar berish.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishi yuqoridagi dastur asosida tashkil etildi.

3.1-jadvalda qayd etilgan tajriba guruhida biz ishlab chiqqan texnologiya asosida "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" darslarini yo'lga qo'yish uchun dastlab ish re'jalari, kalendarli re'ja va kunlik ish re'jalari o'rganildi va tahlil qilindi. Yillik re'jaga ko'ra har bir sinfda "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fani hajmi 34 soatni tashkil qiladi.

Tajriba-sinov ishlarida tajriba sinfi o'quvchilarida yuqorida keltirilgan noan'anaviy usullar, saxnalashtirish, trening, boshqotirma, turli hil topishmoqlar shaklida dars tashkil etildi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga sabab bo'ldi. Buning isboti sifatida jadval 3.2 da tajriba guruhi a'zolarining DTS asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi natijalari aniqlandi.

Ushbu jadvalda tajriba guruhi sinflar hamda o'quvchilar soni asosida samaradorlik aniq qilib ko'rsatilgan.

DTS talablari asosida tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish monitoringi.

№	O'quvchilarning F.I.O'	Olgan bahosi

Tajriba guruh a'zolarining DTS talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoring natijalari.

2019-2020 o'quv yili

Tajriba guruhida jami 25- 30 tadan o'quvchi						
Sinfi Guruhi	O'quvchi soni	86- 100%	71- 85%	55- 70%	Umumiy samaradorlik	Sifat samaradorlik
8"G"	30	9	16	5		
maktabda		31%	52%	17%	79%	82%
9"A"	30	11	15	4		
maktabda		37%	50%	13%	83%	87%

Nazorat guruh a'zolarining DTS talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari monitoring natijalari

2019-2020 o'quv yili

Nazorat guruxida jami 25- 30 tadan o'quvchi						
Sinfi Guruhi	O'quvchi soni	86- 100%	71- 85%	55- 70%	Umumiy samaradorlik	Sifat samaradorlik
8"B"	30	4	16	10		
maktabda		13%	54%	33%	60 %	67%
9"V"	30	5	16	9		
maktabda		17%	53%	30%	62%	70%

Talaba –yoshlarning tarbiyaviy bilimini o‘zlashtirishini tekshirish maqsadida maxsus testlar tuzildi va testlar orqali ularning o‘zlashtirishi va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish doiralari aniqlandi. (Test namunalari dars ishlanmalaridan namunalar dissertatsiyaning ilovasida berilgan.)

O‘tkazilgan suhbatlar va kuzatishlarimizning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba yoshlarimiz bo‘sh vaqtining anchagina qismini ijtimoiy fanlarga va badiiy kitoblar o‘qishga ajratar ekan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarimiz badiiy kitoblarni, elektron darsliklarni va ijtimoiy fanlarni o‘qishga qiziqadi. Bu ko‘rsatkichlar yoshlarimizni ma’nan boy bo‘lishiga, aqlli har tomonlama barkamol, ruhan pok bo‘lib yetishishiga yetaklaydi.

Yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun mantiqiy bahs-munozaralarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning odamiylik fazilatlarini yuksaltirish OAV dan keng foydalanish. O‘quv-tarbiya jarayonida madaniy insonparvarlik, hamkorlik pedagogikasiga doir texnologiyalardan foydalanish va yangi innavatsion texnologiyalarni joriy etish ijobiy natijalarni qo‘lga kiritishimizda katta yordam berganiga amin bo‘ldik.

Ma’naviyat darslarida o‘quvchilarning dunyoqarashi umumiy o‘zlashtirishi aniqlandi:

Ta’lim Turlari bo’yicha	O’rta umumta’lim maktablarining 8- sinflarida “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” darslarida	O’rta umumta’lim maktablarining 9-sinflarida “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” darslarida
Nazorat guruhlarida	60 %	62%
Tajriba sinov guruhlarida	80%	83 %

“Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fanidan bir soatlik dars ishlanmasi

Mavzu: DINLARARO BAG‘RIKENGLIK

Darsning maqsadi: O’quvchilarga Dinlar qadim-qadimdan qanday g’oyalarni amalga oshirishga xizmat qilib kelganligi, Bugungi kunda dinlararo bag‘rikenglikka erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqdaligi, Mamlakatimiz hududida qadimdan hamkorlikda yashab kelayotgan qanday dinlarni bilishi, Diniy faoliyat erkinligini kafolatlaydigan huquqiy asoslar davlatimizning qaysi hujjatlarida aks etgani to’g’risida fikrini tushuntirish.

Ta’limiy: Bolalarga MIG` va MA haqida ma’lumot berish va darsni tushuntirish vaqtida ularga mavzuni ta’limiy ravishda yoritib berish: O’quvchilarga biz nima uchun istiqlolni buyuk ne’mat sifatida qadrlashimizni, Ulug’ maqsadlarga intilib yashagan odam nima uchun adashmasligi, Tabiatda , jamiyatda bo’shliq bo’lmagani kabi , insonning qalbi va ongida ham bo’shliq bo’lmasligini tushuntirish.

Tarbiyaviy: Bilimli, sog’lom, barkamol insonni voyaga yetkazish. O’z yurtiga sadoqatli, mard va fidoyi, komil insonlarni tarbiyalsh, yaxshi va yomonning farqiga borishga, hayotda to’g’ri yo’l tanlash, xalqimiz va Vatanimizga halol xizmat qilish, bunyodkor g’oyalarning hayotbaxsh kuchini to’g’ri anglab, vayronkor g’oyalarga vaqtida zarba berishga o’rgatish . Guruh bilan “ bir yoqadan bosh chiqarib” ishlashga, “ hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun”, “ birlashgan o’zar, birlashmagan to’zar “ maqolining hayotdagi isbotini ko’rsatish bilan o’quvchilarni birlashib, maslahatlashib, bir-birini fikrini hurmatlashga o’rgatish;

Rivojlantiruvchi: O’quvchilarga darsni tushuntirish vaqtida o’quvchilarni qiziqtirish uchun ularni guruhlariga bo’lib, guruhlar bilan ishlash , test savollari,

boshqotirmalar orqali dars rivojlantiriladi. O`quvchilarning to`g`ri fikrlashini rivojlantirish.

DTS talablari: Bolalarga MIG` va MA fani haqida ma`lumot berish.O`quvchilar dars davomida o`rganishi kerak bo`lgan bilim, ko`nikma, va malakalar

Dars turi: Amaliy, og`zaki

Dars jihozi: 1. 8 sinf “MIG` va MA” darsligi

2.Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch

3. Mavzuga oid rasmlar, boshqotirma va test savollari

4. Doska , bo`r, daftar , ruchka

Dars jarayonining mazmuni :

1. Dinlar qadim-qadimdan qanday g`oyalarni amalga oshirishga xizmat qilib kelganligi
2. Prezidentimizning din haqida aytgan fikrlari zahirida qanday ma`nolar mujassam ekanligi
3. Bugungi kunda dinlararo bag`rikenglikka erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqdaligi

Dars jarayoni

- | | |
|---|----------|
| 1.Tashkiliy qism | 4 minut |
| 2.O`tilgan mavzuni takrorlash(mustahkamlash) | 12 minut |
| 3.Yangi mavzuni tushuntirish | 10 minut |
| 4.Yangi mavzuni mustahkamlash | 14 minut |
| 5.O`quvchilarni baholash | 3 minut |
| 6. Uyga vazifa | 2 minut |

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

- a) salomlashish. b) davomatni aniqlash.

II .O'tilgan mavzuni takrorlash

1. Ona Vatanimiz – O‘zbekiston qanday davlat?
2. «Bu aziz Vatan – barchamizniki» g‘oyasining ma’nosini tushuntirib bera olasizmi?
3. Millatlararo hamjihatlik va totuvlik g‘oyasi nima uchun umumbashariy qadriyat hisoblanadi?
4. Nima uchun har bir millatni Yaratganning buyuk mo‘jizasi deymiz?
5. Dunyodagi barcha odamlar umumiy ildizga ega, deganda nimani tushunasiz?
6. Xalqimizga xos do‘stlik, birodarlik fazilatlarini haqida tarixiy misollar asosida gapirib bering.
7. Dunyoda millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi qanday illatlar mavjudligi to‘g‘risida so‘zlang.

III. Yangi mavzuning bayoni Siz inson hayotida boshqa qadriyatlar qatori din va diniy an‘analari ham muhim o‘rin tutishini yaxshi bilsangiz kerak. Din qadim-qadimdan insoniyat uchun zarur bo‘lgan halollik, poklik, insof-u diyonat kabi tushunchalarni o‘zida aks ettirib, odamlarni o‘zaro do‘st va inoq, mehr-oqibatli bo‘lib yashashga undab keladi. Ko‘pgina milliy qadriyatlarning zavol topmasdan yashab kelayotgani ham dinning ana shu xususiyatlari bilan bog‘liq. Dunyodagi barcha dinlar ezgulik g‘oyalariga asoslanadi. Ular odamlarni to‘g‘rilik, shafqat va bag‘rikenglikka, birovga ozor bermaslik, yomon ishlardan tiyilishga, nafs ko‘yiga tushib, adashmaslikka chaqiradi. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi barcha dinlarga xos ana shu umumiy tamoyillarni anglagan holda, ular o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish, barcha din vakillarini, ular bajo keltiradigan diniy rasm-rusum va amallarni hurmat qilishga, shu tariqa ularning kuch va imkoniyatlarini davlat, jamiyat, butun insoniyatning ezgu maqsadlariga xizmat qildirishga da’vat etadi.

Buni yodda tuting: Dinlararo bag‘rikenglik deb, xilma-xil din va mazhab

egalarining bir-birining e'tiqodini o'zaro hurmat qilib, tushunib, yagona zamin, yagona vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashiga aytiladi. Bugungi kunda dinlararo bag'rikenglikka erishish uchun ular o'rtasida madaniy muloqot, amaliy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, keyingi asrda insoniyat boshiga tushgan xatarlar – yadro urushi xavfi, ekologik halokatlar, terrorchilik va diniy ekstremizm kabi ofat-balolar dinlarni ezgulik, barcha insonlar uchun yagona bo'lgan sayyoramizni saqlab qolish yo'lida birlashish va hamkorlik qilishga undamoqda. Barcha dinlarning mohiyatini ezgulik, do'stlik va birodarlik, mehr-shafqat kabi tushunchalar tashkil qilgani uchun aynan ana shu tushunchalar turli din vakillarini muloqotga, hamkorlikka da'vat etadigan umumiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda bashariyat bu haqiqatni tobora chuqurroq anglamoqda. Diniy bag'rikenglik g'oyasi muayyan jamiyatda, butun dunyoda turli din va mazhabga e'tiqod qiladigan xalqlar, odamlar o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish, ularning kuchi va iste'dodini yaxshi va savob ishlarga safarbar etishga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikning muhim sharti bo'lgan bu g'oya bugungi kunda nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini ham nazarda tutadi, hamjihatlikka eiishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bizning mamlakatimiz hududida qadim-qadimdan islom, nasroniylik (xristianlik), iudaizm, buddizm kabi dinlar o'zaro hamkorlikda yashab kelgan. Shuning uchun asrlar davomida yirik shaharlarimizda musulmonlar masjidi, nasroniylar cherkovi, iudaizm diniga e'tiqod qiluvchi yahudiylar sinagogi yonma-yon faoliyat yuritgan. Chunki qadimda Buyuk ipak yo'li aynan bizning yirik shaharlarimiz orqali o'tgan. Shu bois turli din vakillari yurtimizga kelib, bu yerda muqim yashab qolgan. Ularning o'z diniy e'tiqodiga erkin amal qilib, rasm-rusumlarini ado etishiga hech kim xalaqit bermagan. Yurtimizda tarixning eng murakkab davrlarida ham diniy asosdagi nizolar bo'lmagan. Qadimiy shaharlarimizdan topilgan osori atiqalar, ko'hna yodgorliklar buni yaqqol tasdiqlaydi.



Diniy bag‘rikenglik borasidagi shunday an‘analar bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Ularning barchasi xalqimiz dinlararo bag‘rikenglik borasida boy tajribaga ega ekanidan dalolat beradi. Xalqimiz o‘zining bag‘rikenglik fazilatlari bilan, qaysi millat yoki dinga mansubligidan qat’i nazar, insonning hurmatini joyiga qo‘ygan, yordamga muhtoj turli xalq va millat vakillaridan mehrini ham, moddiy ne‘matlarini ham ayamagan. Bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ayniqsa, 1939-yildan boshlanib, 1945-yilgacha davom etgan Ikkinchi jahon urushi paytida xalqimizning yuksak insoniylik fazilatlari yana bir bor sinovdan o‘tadi.

IV darsni mustahkamlash Savol va topshiriqlar:

1. Dinlar qadim-qadimdan qanday g‘oyalarni amalga oshirishga xizmat qilib kelgan?
2. Prezidentimizning din haqida aytgan fikrlari zahirida qanday ma’nolar mujassam?
3. Bugungi kunda dinlararo bag‘rikenglikka erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
4. Qanday xavf-xatarlar dinlarni ezgulik yo‘lida birlashishga undamoqda?
5. Mamlakatimiz hududida qadimdan hamkorlikda yashab kelayotgan qanday dinlarni bilasiz?

6. Diniy faoliyat erkinligini kafolatlaydigan huquqiy asoslar davlatimizning qaysi hujjatlarida aks etgani to'g'risida fikringizni bayon eting.

V. Baholash Faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish. O'tilgan mavzuni konspektlab, o'qib kelish

III – bob yuzasidan xulosa

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy mavqeyi kundan kunga ortib bormoqda. Ta'lim tarbiya sohasida deysinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolmaslik uchun – ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtiriladi. Xalqimizning milliy pedagogik an'alaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston milliy pedagogik texnologiyasi yaratilgan.³³ Pedagogik texnologiyaning tom ma'no va mazmunini bilish, uning asosida har bir fanning, har bir darsning loyixasini tuzib chiqish uchun majmualar nazariyasini qonuniyatlariga yuz foiz suyangan bo'lib, yangicha falsafiy tafakkurni va yangicha dunyoqarashni ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyaning natijasida, o'quvchi va talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab olish emas, balki ta'lim jarayoni yakunida konkret xarakatlarni bajarishga yo'naltirilganligidir.

“Ma'naviy jarayonlarning globallashtirish sharoitida ta'lim tizimi oldidagi vazifalar”dan unumli foydalangan holda, tajriba-sinov ishlarini Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 283 umumiy o'rta ta'lim maktabida dars mashg'uloti o'tkazildi.

“Yoshlarda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tuyg'ularini tarbiyalash mexanizmlari, uslublar, shakl va vositalar”dan unumli foydalanib o'tilgandan uzluksiz ta'lim bo'yicha ma'naviyat darslarida o'quvchilarning dunyoqarashi umumiy o'zlashtirishi aniqlandi. Natijaga ko'ra, nazorat guruhi 60, 62% larni, tajriba guruhi 80, 83% larni ko'rsatdi.

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarida erishilgan natijalar muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo'lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o'qituvchilar va ekspertlar tomonidan bildirgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etildi.

³³ Ziyomuxamedov. B , Abdullaeva. Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya.nazariya va amaliyot. Abu Ali Ibn Sino. T.2001.43b

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asoslangan holda yurtimizda yashab kelayotgan 136 dan ziyot millat vakillarini tinch va osoyishta yashashlarini ta'minlash. Shu bilan birga millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda fuqarolarni ong-u shuurini, mafkuraviy va ma'naviy immunitetini shakllantirish kerak. Bundan tashqari millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni rivojlantirish uchun yurtimizda 100 dan ortiq milliy madaniy markazlar hamda Baynalminal markazlar faoliyat yuritmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek qo'shnilarimiz ya'ni (chegaradosh davlatlar) bilan do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, madaniy-ma'naviy munosabatlarni takomillashtirish lozim. Davlatlar mustqilligini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash, ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Bizning tinchligimizni ko'rolmaydigan g'araz niyatli kimsalar va ularning ortida turgan bir qancha insonlar yurtimizdagi totuvlikni, diniy bag'rikenglikni yot g'oyalar orqali yo'qotishga urinmoqda. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi. Bugungi kunda davlatimizda istiqomat qilayotga turli elat va millat vakillari bir damlikda ushbu tahdidlarni yengib, mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z xissalarini qo'shmog'i lozim!

Foyadalanilgan adabiyotlar :

I. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: «Adolat», 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining ‘oydevori». –T.: «Sharq», 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» gi Qonuni.1997 yil 29 avgust. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining ‘oydevori». –T.: «Sharq», 1998.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni. 1997 yil 6 oktyabr. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining ‘oydevori». –T.: «Sharq», 1998.
6. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida» gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2002 yil 12 dekabr. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi», 2002 yil dekabr №12 (1320)
7. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik ‘alatasi to‘g‘risida» gi Konstitutsiyaviy Qonuni. 2002 yil 12 dekabr. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi», 2002 yil dekabr №12 (1320)
8. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi,1995;
9. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (To‘‘lam). O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri ‘rof. A.H. Saidov. –T.: «Adolat», 2004.
10. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. «Inson Huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (To‘‘lam). O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri ‘rof. A.H.Saidov. –T.: «Adolat», 2004.
11. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi,1948;

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari:

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda bar'o etamiz – T.: O'zbekiston, 2016 yil
2. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak – T.:O'zbekiston, 2017 yil
3. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi – T.: O'zbekiston, 2016 yil
4. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz – T.: O'zbekiston, 2017 yil
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga bag'ishlangan Harakatlar Strategiyasi to'g'risidagi farmoni – T.: O'zbekiston. 2017 yil

III. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li,-T.: O'zbekiston, 1992 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li,-T.: O'zbekiston, 1993 yil.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. - T.: O'zbekiston, 1993 yil.
4. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot mas'uliyatli bosqich.-T.: O'zbekiston, 1994 yil.
5. Karimov I.A. Islohotlar hayotni, hayot esa tafakkurni o'zgartiradi. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997 yil.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston, 1999 yil.

8. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishi. “Xalq so`zi”, 2002 yil 30 avgust
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan xamkorlik yo`li. ‘rezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasidagi ma`ruzasi. – T., «O`zbekiston ovozi», 26 a`rel 2003 yil.
10. Karimov I.A. Yangi hayotni eskiga qarash va yondoshuvlar bilan qurib bo`lmaydi. “Xalq so`zi” 2005 yil 17 fevral
11. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O`zbekiston, 2005 yil.
12. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisod talablarini to`liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish farovon hayotimiz garovidir. T.: O`zbekiston, 2007 yil.
13. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida. T.16. – T.: O`zbekiston, 2008 yil.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Qur`oni Karim ma`nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. –T.: Toshkent islom universiteti, 2014 yil
2. Imom Buxoriy “Al-jome as-sahih” asaridan Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991 yil
3. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi 5 – jild, 2005 yil
4. Murtazayeva R. O`zbekiston millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – T.: “Universitet”, 2007 yil
5. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. – T.: —O`AJBNTI Markazi, 2001 yil
6. Jo`rayev N. O`zbekiston tarixi: (Milliy istiqlol davri) 3-kitob. – T.: Sharq, 2011.-B.429
7. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild, 2000, - B. 534.

8. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti 1993.
9. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1–tom.T.4”Fan” . 1968
10. Madaniyatshunoslik (ma`ruzalar matni). Xoliqov E va boshqalar TTESI, 2007 yil
11. Ma`naviyat asoslari va dinshunoslik Muxtorov A., G`aniyeva M., Sultonov T. (Ma`ruzalar matni) TDIU. 2012 yil
12. Ma`naviyat asoslari. Dinshunoslik (Ma`ruzalar matni) – Termiz: TerDU.2013 yil
13. Yovqochev Sh.A “Siyosat va din”o’quv qo’llanmasi;
14. Narbekov A.V “Dinshunoslik asoslari”,Toshkent-2007 yil
15. Mo’minov A, Yo’ldoshxo’jayev H “Dinshunoslik”,Toshkent-2003 yil
16. Xo’jayev.A.Buyuk ipak yo’li. –T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007 yil
17. O’zbekiston millatlararo hamjihatlik yo’lida. -T.: “Universitet”, 1996.
18. Milliy istiqlool g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: 2000.
19. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug’at.-T.: “Sharq”, 2006.
20. Islom: bag’rikenglik va mutassiblik.-T.: “Universitet”, 1998.
21. Гельдиева А.Ч. Национальная культура и личность. -Т.: “Узбекистан”, 1993.
22. Дадахонова К.Х.Рахимов С. Проблемы интернационализации и межнациональная справедливость. -Т.: “Узбеккистон”, 1992.
23. Джунусов М.С. Национализм в различных измерениях. -Алма-ата, Казахстан, 1990.

24. Ochildiyev Abduvohid. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.:

«O'zbekiston» -2004.

25. Ziyomuxamedov. B , Abdullaeva. Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya.nazariya va amaliyot. Abu Ali Ibn Sino. T.2001.43b

Internet saytlari:

1. [www. icc.uz](http://www.icc.uz)

2. www. Gov.uz

3. www.ziyo.net

4. www. Kun.uz

5. www. Xabar.org

6. www. uza.uz

8. www. 21asr.uz

9. www.eduportal.net

Ilovalar:

1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RASMIY RO‘YHATDAN O‘TGAN DINIY KONFESSIYA VA TASHKILOTLAR. O‘zbekiston musulmonlari idorasi; pravoslavlik; Rim katolik cherkovi; Arman apostollik cherkovi; Nemis yevangel-lyuteranlar cherkovi; Yevangel xristian-baptislar cherkovi; Yettinchi kun xristian adventistlar cherkovi; Koreys protestantlar cherkovlari; To‘liq injilchi xristianlar cherkovi (pyatidesyatniklar); Novoapostol cherkovi; “Iyegov shohidlari” tashkiloti; Bahoiylik; Buddaviylik; Krishnaiylik; Yahudiylik

O‘ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI – O‘zbekiston musulmonlariga rahbarlik qiluvchi diniy tashkilot. 1943 yil 20 oktabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari qurultoyida ta’sis etilgan. Toshkentdagi Baroqxon madrasasida joylashgan. Bu tashkilot 1992 yildan Movaraunnahr musulmonlari idorasi, 1996 yildan O‘zbekiston musulmonlar idorasi deb ataladi. U davlatdan ajralgan mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Idora o‘z hududidagi musulmonlar o‘rtasida diniy ishlarni boshqarib turadi, fatvolar beradi, masjidlarga imom-xatiblar tayinlaydi, diniy xodimlar tayyorlaydi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi moddiy jihatdan musulmonlardan masjidlarga tushadigan hayr-yehsonlar, yordamchi xo‘jaliklar va boshqa hisobiga tahminlanadi. Idora rahbar organi – Oliy Hay’at. Uning raisi muftiy hisoblanadi. Muftiyning o‘rinbosar (noib)lari bor. O‘zbekiston musulmonlari idorasida Masjidlar, Xalqaro aloqalar, Xayriya, Fatvo, Ta’lim va Muhtasiblik bo‘limlari bor. Buxorodagi Mir Arab madrasasida (1945) va Toshkentdagi Buxoriy nomidagi Islom institutida (1971) va bir necha diniy bilim yurtlarida kadrlar yetishtiriladi. Idora tasarrufidagi «Movarounnahr» nashriyotida «Islom nuri» gazetasi, «Hidoyat» jurnali, diniy adabiyotlar, diniy taqvim va boshqalar nashr etiladi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi xorijiy mamlakatlardagi ko‘‘gina diniy tashkilotlar bilan aloqa qiladi. Idora har yili 5,5-6 ming kishilik O‘zbekiston fuqarolarining haj safarini uyushtirishda faol ishtirok etadi. O‘zbekiston musulmonlari idorasi o‘z

faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» gi qonunga rioya qiladi.

‘RAVOSLAVIE. Pravoslaviye yunoncha so‘z bo‘lib “to‘g‘ri mulohaza qilish” ma’nosini beradi. 395 yilda Rim imperiyasi ikkiga bo‘lingach Vizantiyada rasmiy din sifatida shakllana boshladi. Bu jarayon murakkab tarixiy sharoitlarda yuz berdi. G‘arbiy Rim qulagach (476 yil) g‘arbdagi mustaqil davlatlarning cherkovlari Rim papasi boshchiligida kuchli institutga aylandi. Vizantiyada esa Konstantinopol patriarxiyasi dunyoviy hokimiyat nazorati ostida qoldi. Sof diniy ta’limot masalasida kelishmovchiliklar patriarxiya tomonidan papalikning muqaddas ruh Xudo-o‘g‘ildan ham tarqalishi haqidagi tahlilotining inkor etish, shuningdek ikkala tomonning bir-birining hududida bo‘lib o‘tgan Umumjahon Soborlarning qonuniyligi haqida bahs yuritishlari bilan bog‘liq bo‘lgan. 1054 yilda ikkala cherkov bir-biriga anafema ehlon qilgan hamda rasman rim katolik va pravoslavlik cherkovlari vujudga keldi. pravoslaviyening Markaziy Osiyoga kirib kelishi chor Rossiyasining istilosi bilan bog‘liq kechdi. 1871 yilda rus im‘eratorining buyrug‘i bilan Toshkent va Turkiston yeparxiyasi tashkil etildi. Uning markazi Almati shahrida joylashgan. 1916 yilda Toshkent shahriga ko‘chirildi. 2011 yildan buyon RPCH ning Markaziy Osiyodagi tuzilmasi O‘rta Osiyo mitropoliya deb nom oldi. Pravoslaviye yo‘nalishi e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan islomdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

RIM KATOLIK CHERKOVI. Katolitsizm yunoncha “umumiy, yalpi” ma’nosini beradi. 1054 yilda rasman rim katolik va pravoslavlik cherkovlari vujudga keldi. RKCH nasroniylikning boshqa yo‘nalishlaridan farqi: faqat ota-xudodan emas, balki o‘g‘il-xudodan ham muqaddas ruh tarqaladi; Rim papasi Iso Masihning yerdagi noibi; barchaga ruhoniylarga uylanmaslik shart etilgani va h.k. bugungi kunda O‘zbekistonda 5 ta katolik diniy tashkiloti – 1 ta markaz (Toshkent sh.) va 4 ta cherkov (Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Urganch) rasmiy faoliyat ko‘rsatmoqda.

ARMAN APOSTOLLIK CHERKOVI. AACH eng qadimiy xristian cherkovlaridan bo‘lib, milodiy birinchi asrda vujudga kelgan. 301 yildan boshlab

hozirgi Armaniston hududida davlat dini bo'lgan. Asoschisi Grigoriy prosvetitel (240-332). Cherkov diniy tahlimoti dastlabki uchta Umumjahon soborlarining qarorlariga asoslanadi. Dastlabki armanlar Markaziy Osiyoga milodning III-IV asrlarida kirib kelishgan. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Zangezur, Tog'li Qorabog' va G'arbiy Armanistondan ko'plab armanlar ko'chib kelishgan. Sovet hukmronligi davrida ko'plab AACH lari yopilib ketdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach 1992 yilda Samarqand o'ahridagi cherkov binosi AACH ga qaytarib berildi. 1993 yilda Samarqanddagi AACH rasmiy ro'yhatdan o'tgan. 2007 yilda Toshkentda AACH ikkinchi cherkovi ro'yhatdan o'tdi.

PROTESTANTLIK. protestantlik lotincha – e'tiroz bildiruvchilar ma'nosini beradi. XVI asrda Yevropada feodal munosabatlar va katoliklarga qarshi Reformatsiya harakati boshlanadi. Natijada ko'p sonli konfessiyalar, nominatsiyalar va mustaqil cherkovlarni o'z ichiga olgan yangi oqim vujudga keladi. Papaning qirollarni batamom o'ziga bo'ysundirishi, ularning ichki ishlariga tez – tez aralashishi, katta miqdorda mulkka egalik qilishi, yangi munosabatlar rivojiga to'sqinlik qilishi reformatsiyaga sabab bo'lgan. Katolik cherkovini isloh qilish g'oyasining namoyondalari Djon Uiklif, Martin Lyuter, Tomas Myuntser va boshqalar edi. Bu oqimning o'ziga xos yangi tamoyillari: faqat Bibliya muqaddas manba bo'lib, uni barcha dindor talqin etishi mumkinligi; barcha xudo oldida teng bo'lib, ruhoniylarning odamlar va xudo o'rtasida vositachilik qilishga o'rni yo'q; dindorlar ibodat orqali emas, balki Iso Masihning insonlarni gunohdan xalos etish uchun o'zini qurbon qilganiga shaxsiy e'tiqod qilish orqali erishishlari mumkinligi ilgari suriladi. Protestantlarning dastlabki vakillari Turkistonga 1876 yilda paydo bo'lgan.

NEMIS YEVANGEL-LYUTERAN CHERKOVI. Lyuteranlik XVI asrda reformatsiya harakati natijasida vujudga kelgan protestantlikning yirik oqimlaridan biri. Bu ta'limotga Martin Lyuter asos solgan. Rossiya, Ukraina, Markaziy Osiyodagi lyuteran oqimlarini birlashtirib turuvchi uyushma Yevangel-lyuteran cherkovi deb atalib 1999 yilda Rossiya Adliya vazirligida ro'yhatga olingan. O'zbekistonda 1992 yilda ro'yhatga olingan.

EVANGEL XRISTIAN-BA'TISTLAR CHERKOVI. Baptistlik (yunoncha “baptizo”- “suvga botirmoq”, “suvga sho‘ng‘itib cho‘qintirmoq”) XVII asrda Angliyada vujudga kelgan protestant yo‘nalishdagi oqim. Bu oqimga Djon Stax (1554-1612) g‘oyaviy yetakchilik qilgan. 1-Umumjahon xristian – baptistlar sezida e‘lon qilingan mazkur konfessiyaning asosiy tamoyillari: Bibliya yagona muqaddas manba; cherkov balog‘atga yetgan odamlardan iboart bo‘lishi; mahalliy jamoalar o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lishi; barchaning Xudo oldida tengligi; vijdon erkinligi; cherkov va davlatning bir-biridan ajratilganligi va h.k. baptistlik Turkistonga ilk bor 1890 – yillarda Markaziy Rossiya va Sibirdan ko‘chib kelganlar orqali kirib kelgan 1909 yilda Toshkentda baptistlarning dastlabki ibodat uyi ochilgan.

ETTINCHI KUN XRISTIAN ADVENTISTLAR CHERKOVI. Adventistlik (lotincha “adventus” – “kelish”, “voqeh bo‘lish”, “bo‘sag‘asida”) protestant oqimidagi yo‘nalishlardan bo‘lib, unga XIX asrning birinchi yarmida AQSH da Uilyam Myuller asos solgan. 1863 yilda adventistlar yozuvchi ayol Yelena Uayt yetakchiligida Yettinchi kun adventistlari nomi ostida yagona tashkilotga birlashishdi. Uaytning kitoblari Bibliya bilan bir qatorda asosiy diniy ta‘limot manbalaridan hisoblanadi. An‘anaviy xristianlikka zid bo‘lgan g‘oyalari: 1844 yildan buyon “samoviy sud” bo‘layotgani va unda iso Masihning ishtirok etayotgani; xudo suygan bandalariga bashorat qilishni inhom etishi; ruh tana bilan birga o‘lib, Iso Masih ikkinchi bor qaytganidan so‘ng qayta tirilishiga; Iso Masihning ikkinchi bor kelishida faqat taqvodor odamlargina qayta tirilishi; do‘zaxning yo‘qligi va h.k. Adventistlikning O‘zbekiston hududiga kirib kelishi XIX asrning oxiri, XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Hozir O‘zbekistondagi adventist cherkovlari boshqaruv markazi Qirg‘izistonda joylashgan Markaziy Osiyo unioni tarkibiga kiradi. 9 ta Yettinchi kun xristian adventistlari diniy tashkiloti ro‘yhatga olingan.

KOREYS PROTESTANT CHERKOVLARI. Koreys protestant cherkovlari vakillarini asosan koreys millatiga mansub fuqarolar tashkil etadi. Ushbu cherkovlarning aksariyatiga mustaqillikning dastlabki yillarida AQSH va Janubiy

Koreyadan maxsus yuborilgan pastorlar rahbarlik qilgan. Mazkur ruhoniylar mahalliy koreys aholi oarsida missionerlik bilan shug‘ullangan. Hozir deyarli barcha Koreys protestant cherkovlarida pastorlik lavozimida mahalliy fuqarolar faoliyat yuritishadi. 2014 yilning 1 oktabr holatiga ko‘ra O‘zbekistonda jami 52 ta koreys protestant diniy tashkilotlari ro‘yhatga olingan.

TO‘LIQ INJILCHI XRISTIANLAR CHERKOVI (pyatidesyatniklar). pyatidesyatniklar (yunoncha “entererostos” – “yelliginchi”) XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida protestantlik yo‘nalishlariga mansub dindorlar tomonidan asoslangan oqim. Bosh maqsad sifatida “apostollar xristianligi” ni tiklash g‘oyasi ilgari suriladi. pyatidesyatnik nomi xristian manbalariga ko‘ra “pyatidesyatnitsa” diniy bayrami kuni apostollarga muqaddas ruh tushishi oqibatida ularda “karomat qilish qobiliyati” paydo bo‘lgani va apostollar “noma`lum tilda gapira” boshlashlari bilan bog‘liq. Turkistonda dastlabki injilchi xristian jamoalari 1923 yilda Toshkentda tashkil etilgan. Hozirda O‘zbekistonda To‘liq injilchi xristianlar cherkovi yo‘nalishida 21 ta diniy tashkilot ro‘yxatdan o‘tgan.

NOVOAPOSTOL CHERKOVI. Novoapostol cherkovining vujudga kelishi 1830 – yillarda Angliyadagi Rim katolik cherkovlari ichida “katolik-apostol harakati” nomi ostida tanilgan harakat bilan bog‘liq. Harakat a‘zolari cherkovda xristianlikning ilk davri – apostollik holatini tiklash g‘oyasini ilgari surishadi. Ular tomonidan 12 ta “apostol” saylanadi. 1863 yilda Angliyadagi izdoshlaridanajralib chiqqan Germaniyadagi harakat vakillari 1967 yilda tashkilot nomini “Novoapostol cherkovi” deb atay boshlashdi. O‘zbekistonda ushbu cherkovga mansub jamoa 1992 yilda vujudga kelgan. Novoapostol cherkoviga mansub 3 ta diniy tashkilot ro‘yhatga olingan.

IEGOV SHOHIDLARI. “Iyegov shohidlari” diniy tashkilotining tarixi 1870 yildan boshlangan. AQSH ning Pensilvaniya shtatida Charlz Rassel tomonidan “Bibliya tadqiqotchilari” nomli to‘garak tashkil etiladi. Keyinchalik undan ajralib chiqqan Ruterford va uning tarafdorlari “Iyegov shohidlari” nomini oladi. Tashkilotning har bir ahzosi missionerlik bilan shug‘ullanishi lozim. Davlat, hukumat tan olinmaydi, siyosiy partiyalarda bo‘lish, harbiy xizmat o‘tash man

etiladi va h.k. Rasman “Iyegov shohidlari” tashkiloti 1999 yilda Farg‘ona va Chirchiq shaharlarida ro‘yhatga olingan. 2006 yilda Farg‘onada “Iyegov shohidlari” tashkilotining faoliyati qo‘pol qonunbuzarliklari uchun to‘xtatilgan.

“GLOS BOJIY” CHERKOVI. Navoiy shahrida oylashgan “Glos Bojiy” cherkovi 1992-2001 yillarda To‘liq injil xristianlari cherkovlari markazi tarkibida bo‘lgan. 2001 yilda cherkov markazdan ajralib chiqadi. “Glos Bojiy” cherkovi aqidaviy jihatdan Uilyam Merrion Branxam (1909-1965) ta‘limotiga amal qiladi. Tashkilot ahzolari o‘zlarini “xabarga ishonuvchilar” yoki oddiy “xristianlar” deb bilishadi. Branxamni go‘yoki payg‘ambar deb hisoblaydilar. Tashkilotning an‘anaviy xristianlik zid g‘oyalari: muqaddas Troitsa rad etiladi; yagona xudo Iso Masoh deb sanaladi; cho‘qintirish “Ota, o‘g‘il va muqaddas rux nomidan” emas, balki Iso Masih nomidan amalga oshiriladi va h.k. 1990 yillardan Branxam ta‘limoti MDH mamlakatlariga kirib kela boshlagan.

BAHOIYLIK. Bahoiylik 1858 yilda Eron hukumati ta‘qibidan qochgan “bobiylar” oqimiga mansub kishilar tomonidan Iroqda tashkil etilgan. Bahoiylik oqimi yetakchilaridan biri Mirza Husayn Ali (1817-1892). U o‘zini “Bahoulllo” – “Allohning nuri”, xudodan vahiy olgan mahdiy ekanini e‘lon qiladi. 472 oyatdan iborat “Kitobi aqdas” asarini vahiy qilingan muqaddas kitob deb hisoblaydi. Bahoiylik bir necha din avvalo, islom va xristianlik dinlari g‘oyalaridan iborat. Bosh maqsad sifatida yagona din, til, qonun va hukumatga ega bahoiylar dunyosini barpo etish hisoblanadi. Ularning diniy taqvimida 19 kundan iborat bo‘lgan 19 ta oy mavjud. Islomga zid bo‘lgan aqidalari: Bahoulloning payg‘ambarligi; Muhammad (s.a.v) ning so‘nggi payg‘ambar emasligi; Qur‘onni bekor qilishni davo etishi; uch mahal namoz, ro‘za 19 kun va h.k. Turkistonga Bahoiylik jamoalari chor Rossiyasi davrida kirib kelishgan. O‘zbekistonda bahoiylar diniy tashkilot sifatida 1994 yilda ro‘yhatga olingan.

BUDDAVIYLIK. Buddaviylik jahon dinlari ichida eng qadimiylaridan biri. Buddaviylik ko‘proq Sharqiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan: Xitoy, Tailand, Yaponiya, Birma, Shri Lanka, Vetnam, Kampuchiya, Malayziya va h. Buddaviylik Markaziy Osiyoga miloddan avvalgi birinchi asrda kirib kelgan. Mustaqillik

yillarida O‘zbekistonda Budda ibodatxonasi 2001 yilning noyabr oyida ro‘yxatga olingan.

KRISHNAIYLIK. Krishnaiylik Hindistondagi qadimiy qo‘lyozmalar asosida tashkil etilgan diniy yo‘nalish. Unga hind millatiga mansub Abxay Shiran De (1896-1977) asos solgan. Krishnaiylikning markaziy tashkiloti – Krishnani anglash xalqaro jamiyati 1965 yilda AQSH da ro‘yxatga olingan. Dastlabki krishnachilar O‘zbekistonda 1985 yilda paydo bo‘lgan. Hozir O‘zbekistonda krishnachilarning yagona diniy tashkiloti Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda.

YAHUDIYLIK. (Qarang Iudaizm). O‘zbekiston hududiga yaxudiylar miloddan avvalgi liasrlarda kirib kelishgan. Hozir O‘zbekistonda 8 ta yahudiy jamoasi faoliyat ko‘rsatadi.

O‘ZBEKISTON BIBLIYA JAMIYATI. Bibliya jamiyati – Bibliyaning ommalashtirish maqsadida xristian tashkilot va uyushmalari tomonidan tuzilgan. Bibliya jamiyati uyushmasi milliy Bibliya jamiyatlarini birlashtiruvchi xristian tashkiloti bo‘lib 1946 yilda Angliyada tashkil etilgan. O‘zbekiston Bibliya jamiyati Bibliya jamiyati uyushmasining a‘zosi bo‘lib tashkilot 1994 yilda ro‘yxatdan o‘tgan.

2-ilova

16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni

YuNESKOning 1995-yil 16-noyabrda bo‘lib o‘tgan Bosh konferensiyasida ushbu sana “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” deb e‘lon qilindi va bag‘rikenglik tamoyillari to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilindi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekistonning Birinchi prezidenti Islom Karimovning bevosita tashabbusi va rahnamoligida mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga bekamu ko‘st va sof yetkazish, konfessiyalararo muloqot, millatlar va dinlararo totuvlik hamda diniy

bag'rikenglik masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Bugun uning hududida 130dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka, O'zbekiston hududida yashayotgan barcha xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan milliy siyosat ishlab chiqildi.





1992-yilda tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi Birinchi Prezidentning millatlararo munosabatlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rligi nishonasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-yil mazkur tashkilot negizida, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan 140 ga yaqin milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.



O'tgan yillar davomida milliy-madaniy markazlarning 150 dan ziyod faollari faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi. Alohida ta'kidlash lozim, turli millatga mansub 14 nafar mamlakatimiz fuqarolari Davlatimizning oliy mukofoti- "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 2200 dan ortik diniy tashkilotlar mavjud. Ular qatorida diniy ta'lim muassasalari ham o'rin egallagan.



1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Mazkur davlat boshqaruv organiga har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berildi.

Muborak Ramazon va Qurbon hayitlarining ma'naviy hayotimizdagi o'rni, mohiyati va ahamiyatini, xalqimizga mansub mehr-oqibat, shukronalik va bag'rikenglik ramzi ekanini e'tiborga olib, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash maqsadida "Diniy bayram – Ro'za va Qurbon hayitlarini dam olish kuni deb e'lon qilish haqida"gi Farmon e'lon qilindi.

1999-yilda Birinchi Prezidentning tashabbusi bilan Toshkent islom universiteti ta'sis etildi. 2017-yilda mazkur oliygoh negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Bu yerdagi talabalar ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni uyg'unlikda olmoqdalar.

Masjid imom-xatiblarining maxsus o'quvlarini tashkil etish hamda buyuk ajdodlarimizning merosini puxta va chuqur o'rganish maqsadida 2008-yilda Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro markazi ta'sis etildi.

Davlat tomonidan islom diniga mansub fuqarolarning haj va umra safarlarini tashkil etish ishlariga g'amxo'rlik ko'rsatib kelinmoqda.

Har yili Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi tomonidan Isroilning Iyerusalim shahriga, shuningdek, Rossiya va Gretsiya davlatlariga ziyoratlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylandi.

Istiqlol davrida Qur'oni karim, hadislar to'plamlari, Bibliya tarkibidagi Yangi ahd va Qadimiy ahdning ba'zi qismlari o'zbek tilida chop etildi.

Bugun vatanimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari Konstitutsiya va mustaqil O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar, Vatanimizning ravnaq to'ishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

14-noyabr kuni Islom Karimov nomidagi Yodgorlik majmuasida ushbu sanaga bag'ishlangan Milliy va diniy bag'rikenglik-mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining muhim omili mavzusida anjuman o'tkazildi. Tadbirda parlament a'zolari, idora va tashkilotlarning rahbarlari, milliy-madaniy markazlarning vakillari, olimlar, soha mutaxassislari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talaba yoshlar ishtirok etdilar.

Yodgorlik majmuasi rahbari, professor Temur Shirinov, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rektori, senator Gulchehra Rixsiyeva, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori, professor Shuhrat Yovqochev, O‘zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi direktori Shoazim Minovarov, Yodgorlik majmuasi rahbarining o‘rinbosari, akademik Tursunali Qo‘ziyev, Jahon tillari universiteti professori Narzulla Jo‘rayev va boshqalar O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik, mustaqillikka qadar va istiqloldan keyingi davrda millatlararo munosabatlar, O‘zbekistonda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda Islom Karimovning roli kabi bir qator mavzularda fikr-mulohazalar bildirishdi.

Ma’ruzalar bo‘yicha muhokamalarda yoshlarning faol ishtiroki alohida e’tiborga molik. Demak, bugungi yosh avlod tinchlik va barqarorlik masalasiga o‘zini daxldor deb biladi va bu buyuk ne’matlarni asrab-avaylashning naqadar muhimligini chuqur anglaydi. Tadbir davomida mazkur sanaga bag‘ishlab tayyorlangan videofilmlar namoyish etildi. Mehmonlar “Butun olamni jo qilgan yurak” ko‘rgazmasi bilan yaqindan tanishdilar.

GLOSSARIY

No	O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
1	Globallashuv-insonlar o'rtasida jasiyat hayotimning turli sohalarida o'zaro ta'sirning keskin kuchayishi	Globalization	Глобализация
2	Ilmiy – o'zagi "ilm" bo'lib, arabcha - anglash, bilish demakdir	Scientific	Научный
3	Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kirishgan, o'z – o'zini anglagan odam	Person	Личность
4	Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan ta'lim sohasiga oid xujjat	National Programme of te Personnel Training	Национальной программы по подготовке кадров
5	Pedagogik texnologiya – darsni samarali olib borishga mo'ljallangan usul va uslublar	Pedagogical technology	Педагогические технология
6	Burch – Insonni bajarishi zarur deb bilgan istaklari	Obligation	Обязанность
7	O'quv guruxi – ta'lim muassasalaridagi jamoaviy bo'g'in	study group	Учебная группа
8	Davlat – siyosiy tashkilot	State	Государство
9	Qonun – oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ	Law	Закон

	xuquqiy xujjat		
10	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tg'risida"gi qonuni -- 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan ta'lim soxasiga oid yuridik xujjat	Law of the Republic of Uzbekistan "On Education"	Законом Республики Узбекистан «Об образовании»
11	Tarix- voealar bayoni, fan turi.	History	История
12	Madaniyat- shaharga oid.	Culture	Культура
13	Inson huquqlari – insonga davlat tomonidan belgilab berilgan normalar	man rights	Права человека
14	Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir	Spirituality	Духовность
15	Jamiyat- kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi	Society	Общество
16	Pedagog – qadimgi yunonlarda bolani kuzatib boruvchi ma'nosini anglatgan	Pedagog	Педагог
17	Inson – odam, individ	Person	Человек
18	Oila- jamiyatning kichik bo'g'ini	Family	Семья
19	Milliy – millatga xos	National	национальный
20	Tarbiya – yo hayot yo mamot masalasi	Bring up	Воспитания

21	Avlod – urug' davomchilari	Generation	поколение
22	Millat- muayyan hududda yashaydigan, o'z tiliga, madaniyatga, turmush tarziga ega bo'lgan etnik birlik	Nation	нация
23	Din – ijtimoiy hodisa	Religion	религия
24	Diniy kitob – dinga doir kitoblar	religious books	Религиозные книги
25	Milliy g'oya – millat tafakkuri mahsuli	National idea	Национальная идея
26	Ta'lim tizimi – ta'limga oid barcha narsa	education system	Система образования
27	Bag'rikenglik	Tolerance	толерантост
28	Totuvlik	Harmony	Согласие
29	Hadis	Hadith	Хадис
30	Huquq	Right	Права человека
31	Qonun	Law	Закон
32	Harakatlar strategiyasi	Action strategy	Стратегия действия